



Taqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

TOMAS ALVA EDISON
(1847-1931)

2022
MART
№38



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 38-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 64 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. А.М.Турғунов, Ш.Х.Рустамов	
ТАЛІАБАЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ҚИСМАН ИЗЛАНУВЧАН МЕТОДИ ОРҚАЛИ АМАЛГА ОШИРИШ	8
2. Abdullayeva Dilnoza Nurmuhamed qizi	
PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QUV METODIK BO'LIMINING RO'LI	11
3. Abdurahimova Mohira Numonjonovna	
YOSHLARNI RAQOBATBARDOSH KADR SIFATIDA SHAKLLANISHIDA INTERNET TARMOG'NING AHAMIYATI.....	13
4. Aburazzokova Zulfiya Abdurahmonovna	
5-SINF O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI BAHOLASHDA E'TIBOR QARATISH LOZIM BO'LGAN JIHATLAR.....	15
5. Hojirahmatova Olmaxon Tursunovna	
YOSHLARDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH	18
6. Vadinova Shahnoza Sobirjonovna, Kuziyeva Dildora Aljonovna	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TASVIRIY FAOLIYATI.....	19
7. Lolayeva Zarima Abdixoliq qizi	
PROVERBS WITH NUMERAL COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	21
8. Muydinova Dilnavoz Najmuddinovna	
O'QUVCHILARDA NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	23
9. O'rmonov G'olibjon Solijonovich	
TA'LIM TIZIMIDA O'QUV JARAYONIGA TADBIQ ETILISHI ZARUR BO'LGAN ISTIQBOLLI DASTURIY TIZIMLAR.....	26
10. Otaboyeva Durdonaboboqova	
KONSTITUTSIYAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISHNING AHAMIYATI	28
11. Fayziyeva Xolida Asadovna, Raximova Ozoda Rizo qizi	
FIZIKA FANINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH	30
12. Rashidova M.X., Namozova D.B	
TEACHING TECHNICAL SUBJECTS THROUGH ENGLISH.....	32
13. Umarova Muhayyo Isroilovna	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA EGMA EGRA DASTURIDAN FOYDALANISH.....	34
14. Akramova Gulnozxon Xolmatovna	
BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISH OMILLARI XUSUSIDA.....	36
15. Mahmud Yo'ldoshev, Xolmatov Islomjon G'ulom o'gli	
AMERIKA VA G'ARB MAMLAKATLARIDAGI O'QUVCHILARNING SINF PARTALARIDA YOLG'IZ O'TIRISHLARINING TA'LIM SIFATIGA BO'LGAN TA'SIRI.....	38
16. Azimjonova Rushana Rashid qizi	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN GENDER XUSUSIYATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH	39
17. Bekchanova Feruza Xadjinazarovna	
MASOFAVIY O'QITISH KURSLARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA MOOC TIZIMINING AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI	41

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

18. J.A.Karshiyev IBN SINO, FITRAT, ABDULLA AVLONIY KABI OLIMLARIMIZ QOLDIRGAN MEROS YORDAMIDA TALABALAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANITIRISH.....	43
19. Qambarova Nasiba Qambarovna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA YO'LLARI	45
20. Рахманова Дилдора Гуломалиевна СПОРТ – ЗАЛОГ ЗДОРОВЬЯ.....	49
21. Yaqubova Husnigul Quryozovna, Matkorimova Gulshad Sapayevna XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI TA'LIM TIZIMIGA JORIY ETISH MEXANIZMLARI	51
22. Yunusova Enaxon Muqumovna BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO'Z MA'NOLARI USTIDA ISHLASH USULLARI.....	53
23. Абдурахмонов Ислом МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ СИНОНИМОВ В УЧЕБНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ	55
24. Кадам Бабаджанов, Дилмурод Худайберганов ЎРТА МАХСУС КАСБ-ХУНАР ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ	56
25. Якубжонова Мафтунахон Исломжон қизи ТАЛАБАЛАРНИНГ САМАРАЛИ ФАОЛИЯТИ АМАЛИЁТИ ДОИРАСИДА WEB-ПОРТФОЛИО ТУРЛАРИ	59
26. Xasanova Nafisa Nozimjonovna IRRATSIONAL SON TUSHUNCHASI.....	61
27. Rakhimova Dunyozod Sherzodbek qizi INNOVATSION TEXNOLOGIYA: TANQIDIY FIKRLASHNING BOSQICHLARI.....	64



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ҚИСМАН ИЗЛАНУВЧАН МЕТОДИ ОРҚАЛИ АМАЛГА ОШИРИШ

т.ф.н.доц А.М.Турғунов Ш.Х.Рустамов
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ Қарши филиали

Анотация: Ушбу мақолада қисман изланувчанлар методи ва унинг мазмуни ҳақида қисқача тўхталиб ўтишган.

Калит сўзлар: Объект, изланувчан қисман изланувчан, таҳсил, рефлексия, стандарт, онтогенез, қарама-қаршилик моҳияти, тахмин, фараз, метод.

Аннотация: В данной статье кратко затронут метод частичного исследования и его содержание.

Ключевые слова: Объект, исследуемый, исследуемый, познавательный, рефлексивный, эталонный, онтогенез, сущность противоречия, предположение, гипотеза, метод.

Abstract: This article briefly touches on the method of partial research and its content.

Keywords: Object, investigated, investigated, cognitive, reflexive, reference, ontogenesis, essence of contradiction, assumption, hypothesis, method.

Қисман изланувчанлик вазияти жумласига берилган таъриф муаммоли вазифа таърифига жуда яқин. Бироқ, қисман изланувчанлик тушунчаси муаммоли ўқитиш мазмунин таркибининг элементи ҳисобланади. “Муаммоли топшириқ - қисман изланувчанлик мазмуни ва таркибининг ўлчов бирлиги ва бу таркибнинг ўзи эса муаммоли топшириқлар тизимирид. Муаммоли вазифа - бир-бири билан ҳам, таълим олувчиларнинг мавжуд билимлари билан ҳам зиддиятли муносабатда бўлган элементларни қамраб олади. Муаммоли топшириқнинг тузилиши учта компонент билан тавсифланади: маълумотлар-шартлар, талаб ва изланадиган номаълум” [68].

Ж.Дъюи муаммоли ўқитишнинг қўйидаги концептуал қоидаларини ажратиб кўрсатди [114].

1. Онтогенез - организмнинг юзага келгандан бошлаб то умрининг охиригача бўлган индивидуал ривожланиш йўлида бор жиҳат шуки, таҳсил олувчи билим эгаллашда инсоният босиб ўтган йўлни тақрорлайди.

2. Билимларни ўзлаштириш – беихтиёр рўй берадиган, бошқариб бўлмайдиган жараён.

3. Таҳсил олувчи материални шунчаки ҳис-туйғу органлари ёрдамида эшитиб ёки идрок этиб қолмай, балки уни ўзида пайдо бўлган билим олишга бўлган иштиёқни қондириш маҳсулӣ ўлароқ, ўз таълим мининг фаол субъекти бўлгани ҳолда ўзлаштиради.

Таълимни муваффақиятли амалга ошириш шартлари қўйидагилар саналади:

- 1) ўкув материалини қисман изланувчан тарзида тақдим этиш;
- 2) таҳсил олувчининг фаоллиги - билимлар қизиқувчанлик билан ўзлаштирилиши лозим;
- 3) таҳсилни – ҳаётий ўйин ва меҳнат фаолияти билан узвий тарзда боғлаб олиб бориш.

Шу тариқа, қисман изланувчанлик методининг самарали бўлиши ва муваффақиятини кафолатлайдиган шарт-шароитлар - методиканинг ўзида жамлайди. Аслида, қисман изланувчанлик методи қарама-қарши фикрлаш жараёнлари ва билим эгаллаш тарзини фаоллаштиришга имкон беради. Янги ахборот технологияларининг маҳсус воситалари моҳирона қўлланилганда мазкур методика ўқитиш ва олинган билим сифатини, шунингдек, информатика фанига оид муаммоли масалаларни ҳал қилишдаги фаолият самарадорлигини сезиларли даражада яхшилаши мумкин.

Юқорида келтирилган фикрлардан кўриниб турибдики, қисман изланувчан метод чукур ривожлантирилганда - анъанавий ўқитиш ва ўкув материалини одатий баён қилиш билан



такқослаганда кўп афзалликларга эга.

Қоида тариқасида, машғулотлар тизимида дарснинг қуидаги босқичлари:

1. Аввал ўтилган материални қисман тақорлаб, текшириш.
2. Янги материални тақдим этиш.
3. Янги тақдим этилган материални мустаҳкамлаш.
4. Рефлексия кабиларни мавжудлигини назарда тутади.

Мазкур босқичларда қисман изланувчан методикасини амалиётга тадбиқ этиш мумкин. Талабалар аввал ўтилган мавзуни қандай ўзлаштирганини текширишда бу фоятда зарур, чунки билимнинг амалий қиймати айнан қисман изланувчан вазиятларни ҳал қилиш, ностандарт вазиятда тўғри хатти-ҳаракатни бажариш ва қарор қабул қилиш усулларини топишда яққол кўзга ташланади. Фикрлаш ва билимлар тараққиётида таҳсил олувчи шахс инсоният босиб ўтган ривожланиш йўлини тақрорлайди, деган қарашга таяниб, янги илмий материални ҳам тарихан пайдо бўлган ва ҳал қилинган муаммолар келиб чиқиб тақдим этиш, етказиш тавсия этилади. Анъанавий ўқитишида янги материални мустаҳкамлаш яқинда эгалланган ахборотни талаб қилувчи топшириқларни бажариш орқали содир бўлади. Стандарт масалалардан ташқари қисман изланувчан вазиятларни ҳам бу жараёнда ҳозир бўлиши жуда муҳимдир. Табиийки, мустақил таълим, мустақил таҳсил қобилиятини аниқлаш учун таҳсил олувчидаги ўз билимлари ҳолатига рефлексия ҳосил қилиш, яъни унинг эътиборини билимларни ўзлаштирилиш ҳолатига қаратишни қисман изланувчан таълим методикаси ёрдамида ҳам амалга ошириш имкони мавжуд.

Қисман изланувчан вазифалар муаммоли ўқитишининг таркибий бирлиги бўлгани учун, маҳсус интеллектуал таҳсил бериш тизимига асосланган муаммоли ўқитиши методикасини амалиётга тадбиқ этишда келгусида уларга таяниш мақсадида муаммоли топшириқлар босқичларини аниқлаб олиш ўринли бўлади. Қисман изланувчан методлар негизида мақсад ва номаълум ўртасидаги, шу билан бирга таҳсил олувчини яратишда билиш ва билмаслик ўртасидаги зиддиятлар ётар экан, у ҳолда педагогнинг мақсади қарама-қаршиликларни ҳал қилишда талабалар фаоллигини оширишдан иборат . Педагогика фани назариясининг баъзи манбаларига кўра [85; 118], қисман изланувчан методи орқали таълим бериш жараёни ва муаммоли ўқитиши мобайнидаги билим олишга қаратилган фаолият қуидаги асосий босқичларга:

- 1) қисман изланувчан вазиятни ҳосил қилиш;
- 2) қарама-қаршиликнинг моҳиятини англаш ва қисман изланувчан метод орқали бажариладиган масалани ифода этиш;
- 3) таҳмин, фараз ва шу кабиларни илгари суриш орқали қисман изланувчан метод орқали масалани ечиш йўлини излаш;
- 4) қилинган фаразнинг тўғри эканлигини асослаш ва исботлаш;
- 5) қисман изланувчан метод орқали масала ечимининг тўғрилигини текшириш.

Гарчи уларнинг барчаси мантиқий ва содда бўлса-да, педагогика амалиётида қисман изланувчан методидан фойдаланиш бир қанча саъй-ҳаракатларни талаб қиласди. Қисман изланувчан методни тадбиқ этган ҳолда дуч келинадиган эҳтимолий муаммоларни аниқлаш мақсадида барча босқичларни рўёбга чиқаришдаги мавжуд қийинчиликларни тушуниб олишга ҳаракат қиласми.

Қисман изланувчан метод орқали ҳал қилинадиган вазифани ўртага қўйиш таҳсил олувчини муаммоли вазиятга яқин олиб келиш мақсадида назарий материални маҳсус қайта куришдан иборат бўлади. Ўз навбатида, назария шунчаки ҳикоя айтиб беришдек тасаввур уйғотмаслиги учун - жараён материални тақдим этишнинг классик, кўпдан сақланиб келаётган тарзи, усулини ўзгартиришни талаб қиласди. Ушбу усул хатти-ҳаракатларни бажаришга ундаши, янада тўғрироғи қисман изланувчан метод орқали вазиятларни ҳал қилишда таҳсил олувчиларнинг тафаккурини фаоллаштиришга кўмак бериши лозим. Бу эса ўқитувчига нисбатан маълум талабларни қўяди, биринчи навбатда, у кенг билимга, юқори даражадаги интеллектга, юқсак касбий маҳоратга эга бўлиши ва таҳсил олувчилари максимал даражадаги натижаларни қайд этишига интилиши керак. Иккинчидан, бундай машғулотларга тайёргарлик кўришда доим куч-ғайрат сарф этиши ва ўкув материалларини маҳсус тарзда қайта ишлаши зарур бўлади. Учинчидан, ва энг муҳими, педагог қисман изланувчан метод тадбиқ этишни талаб этадиган вазиятларни ташкил эта олиши ва ҳал қилиши учун ўзи ўтаётган предмет соҳасида катта тажриба тўплаган бўлиши керак. Аммо,



бир томондан, фан соҳасидаги қўплаб тадқиқотчи-методистларнинг тажрибасини битта педагог ўзида жамлай олмайди, бошқа томондан педагог ўзини тадқиқотчи сифатида хисобламаслиги, ўзини унинг ўрнига қўймаслиги керак.

Қарама-каршиликнинг моҳиятини англаш учун педагог ўтиларажак материални чукур билиши ва юқори интеллектуал салоҳиятга эга бўлиши зарур, бунга диалектик фикрлаш ва танқидий ёндашувни ҳам кўшиш зарап килмайди. Таърифланган фазилатлар ҳам ўзига хос камёб ва ҳар бир педагогда бу фазилатлар турли даражада, ўзига хос ривожланган бўлиши лозим.

Хулоса қилиб айтадиган талабаларни қисман муаммоли вазиятларни ҳал қилишда информатика фанини замонавий ахборот ва илғор педагогик технологиялардан кенг фойдаланиб ўқитиш муҳим аҳамият касб этади. Бу талабаларни муаммоли ўқитишнинг қўйидаги концептуал қоидаларини ажратиб кўрсатди шу билан бирга жумбоқ, ҳал этиш, илмий ечимини кутаётган нимадир, маълумот бўйича нотаниш ниманидир излаш, тадқиқ этиш учун мўлжалланган топшириқларни бажаришга амалий ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Азимов Э.Г. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков). - СПб: «Златоуст», 1999.
2. Бабанский Ю. О дидактических основах повышения эффективности обучения //Народное образование. - 1986. - № 11. - С. 105-111.
3. Рустамов Ш. Интеллектуал таълим тизимлари ва уларнинг стратегияси. ЎзМУ хабарлари. Тошкент. 2021. № 1/3/1.144-147-б
4. Рустамов Ш. Таълим жараёнидаги вазиятлардан самарали фойдаланишнинг инновацион педагогик шартлари “Муғаллим ҳэм үзликсиз билимлендир” Илмий-методик журнал 2020 йил 6-сон.
5. Рустамов Ш. Таълим берувчи тизимларнинг интерфейсини лойиҳалаштириш Асадемис Ресеарч ин Эдусатионал Ссиэнсэс ИССУЭ 6/2021 Ссиэнтифис Жоурнал Импаст Фактор (СЖИФ) 2021:5.723



**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA
O'QUV METODIK BO'LIMINING RO'LI**

Abdullayeva Dilnoza Nurmuhamed qizi-

Toshkent Davlat Agrar Universiteti
qoshidagi Bo'ka Agrotexnologiyalar texnikumi
o'quv metodik bo'lim boshlig'i
998936020905

Abdullayevadilnoza0905@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda bugungi kunda professional ta'lism tizimida ta'lism sifatini oshirish, malakali kadrlar yaratishda o'quv metodik bo'limining ahamiyati va vazifalari haqida ma'lumotlar va fikrlar keltirilgan.

In this thesis, information and opinions are given about the importance and functions of the educational methodical Department in improving the quality of education in today's professional education system, the creation of qualified personnel.

Kalit so'zlar: kvalifikatsiya, xalqaro tasniflagich, WorldSkills, Xayot davomida ta'lism olish, Androgogika, Hard Skills, SoftSkills, MSKO.

Mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lism sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyatga ttabiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lism tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Professional ta'lism tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lism bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalg qilish maqsadida 2020/2021 o'quv yildidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limgan xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o'rnlarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lism tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lism dasturlari joriy etiladigan ta'lism muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Mexnat bozoriga yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun sifatli ta'lism jarayonini tashkil etishda professional ta'lism muassasalaridagi metodik bo'limning ro'li judayam katta. Bu esa o'z o'rnida ta'lism muassasalaridagi metodik bo'lim boshliqlariga yangi talablar qo'yadi. Professional ta'lism bo'lim boshliqlari o'quv jarayonini tashkil qilishda ta'lism standartlariga muvofiq o'quv-tarbiyaviy rejalar va dasturlarning bajarilishini ta'minlashi, ta'lism jarayonini o'quv jarayoniga ilg'or standartlarni joriy etishga qaratilgan zamонави shakllar va uslublar, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi lozim. Buning uchun u muntazam ravishda malakasini oshirib borishi, kasbiy faoliyati davomida ta'lism olishga va o'z mahoratini oshirishga intilishi lozim bo'ladi.

Bugungi kunda professional o'quv metodik bo'lim boshliqlaridan jamoani boshqarishning samarali usullarini, xodimlarni ma'nnaviy va moddiy rag'batlanadirish tizimlari va metodlarini, pedagog xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish usullari, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini, o'qituvchilar faoliyatini tahlil qila olishni, muammolarini aniqlashi va ularni hal qilishning samarali yo'llarini topishni, metodik tavsiyalar, o'quv rejalarini va dasturlar, qoidalar, nizomlar, lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqishni, ishlab chiqarish majlislari va suhbatlar o'tkazishni, talim muassasasi faoliyatini zamонави texnologiyalar asosida monitoring qilishni bilish talab etiladi.

Professional ta'lism muassasalarida o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini o'rganish va umumlashtirish, zamонави pedagogik texnologiyalarni joriy qilishni tashkil etish, pedagog xodimlarga metodik yordamni, jamoaning va o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilishni tashkil qilish va amalga oshirish, o'qituvchilar faoliyatining tasdiqlangan rejalariga mos ravishda ish vaqtini hisobini olib borish, darslar, imtihonlar jadvali va boshqa o'quv tadbirlarini ishlab chiqish, o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar ishlab chiqilishini, yosh mutaxassislarga metodik yordam berishni, o'qituvchilar malakasini, kasbiy mahoratini oshirish ishlarini olib borish, o'quvchilarning o'quv yuklamasini takomillashtirish malakalariga ega bo'lishi talab qilinadi.

Shuningdek muassasa faoliyati va uni rivojlantirishning pedagogik va iqtisodiy asoslarini,



pedagogik jamoada qulay psixologik muhit yaratishni hamda ta’lim sifatini oshirishda pedagog hodimlardan bir pog‘ona ilg‘or bo‘lgan holda yuqori malakali, bilimli, intiluvchan ijodkor hamda boshqaruvchi shaxs sifatida o‘z kasbiy faoliyatini olib borishi lozim.

Hozirgi kunda professional ta’lim o‘quv metodik bo‘lim boshliqlariga sifatli ta’lim tizimini yaratish, pedagog hodimlarni sifat darajasini oshirish hamda o‘z kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz oshirib borishlari uchun lavozim vazifalariga qo‘srimcha yangicha yondashuv zamon talabi bo‘lib qo‘yilmoqda:

-pedagog kadrlarni lavozimlari bo‘yicha yetarli darajada kvalifikatsiya va kompetensiya darajalariga ega bo‘lishlari uchun yangi bilimlar bilan qurollantirish;

-ta’lim shakllari va metodlarini modernizatsiyalash, shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish, innovatsion kasbiy salohiyat elementlarining uyg‘unligi va uzviyligini ta’minlash;

-o‘quvchilarning kasbiy malakasini “WorldSkills” standartlari asosida baxolash tartibini bosqichma bosqich joriy qilish;

-Sirtqi ta’lim yo‘nalishlari uchun “Xayot davomida ta’lim olish” prinsiplariga asoslangan holda “Kattalar ta’limi” (Androgika) ta’lablariga mos ta’lim jarayonini tashkil etish;

-dual ta’lim tizimini joriy qilish;

-o‘quvchilarda kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda “similyatsion o‘qitish” texnologiyasini keng tadbiq qilish;

-o‘quvchilarda Hard skills va Soft skills kompetensiyalarini shakllanishini nazorat qilish;

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sifatli zamonaviy ta’lim muhitini yaratish, pedagoglarni bilim saviyasini to‘g‘ri baholab ularni yo‘naltirish, ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashgan va mehnat bozori talablari asosida moslashuvchan kadrlar tayyorlashda professional ta’lim o‘quv metodik bo‘limlari xodimlari oldiga muhim vazifalarni qo‘yadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 5812 “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus tag‘lim vazirligining 03.03. 2020 yil O‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining “Tarmoq tarif-malaka ma’lumotnomasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida 78 sonli buyrug‘i

3. O‘zbekiston respublikasining ta’lim to‘g‘risida qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son)



YOSHLARNI RAQOBATBARDOSH KADR SIFATIDA SHAKLLANISHIDA INTERNET TARMOG‘INING AHAMIYATI

Abdurahimova Mohira Numonjonovna

Farg‘ona viloyati Yuridik texnikumi o‘quv bo‘limi uslubchisi

Annotatsiya: maqolad yoshlarning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishida, dunyoqarashini kengayishida hamda ularni kelajakda yetuk kadr sifatida shakllanishida internetning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zları: yoshlar, dunyoqarash, internet, mutaxassis, raqobatbardosh.

Bugungi kunda Internet tarmog‘iga kiruvchilar kontingeninti katta qismini asosan yoshlar tashkil etadi. Yosh avlodning Internet axborot resurslaridan foydalanish huquqi ularning yoshi va ruhiy holati xususiyatlariiga bog‘liq holda O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risidagi” qonuni va qonun osti xujjalari bilan belgilab qo‘yilgan.

Zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tezkorki, endi avvalgidek, unga e’tiborsizlik bilan qarash to‘g‘ri kelmaydi. Ayni vaqtida O‘zbekistonda ham ochiq axborot-informatsion texnologiyalar, kompyuter va internet tizimida kuzatilayotgan turli xil axborot manbalari vositasida yurtimizda kamol topayotgan yoshlarda o‘ziga xos fikrlash tarzi va dunyoqarashning keng yoyilishiga sabab bo‘layotganining guvohi bo‘lyapmiz.

Axborot tizimi yoshlarni elektron adabiyotlar bilan tanishishga, madaniyatni o‘rganishga, o‘zaro axborot almashinuviga keng imkoniyat yaratib bermoqda. Natijada yoshlarda chet tillarini o‘rganishga ishtiyoq va ehtiyoj tug‘ilmoqda, bu o‘z navbatida kengroq doiradagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga olib kelmoqda. Internet orqali bilim olish, estetika va sanat, tarixiy voqealar, ekologik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish haqidagi ma’lumotlardan nogiron yoshlarning xabar topishiga imkoniyat yaratildi. Lekin Internet axborot resurslari barcha yoshlarga birday ijobiy ta’sir etmay, balki ularning ongiga, madaniyatiga, milliy urf-odatlariga, huquqiy, tashabbuskorlik holatiga, diniy dunyoqarashiga va ekologik tarbiyasiga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarda tez moslashuvchanlik hislatlari katta yoshdagilarga nisbatan ancha yuqori darajada bo‘lganligi uchun ularning xulq atvori, ruhiy holatidagi o‘zgarishlarni muntazam ravishda kuzatib borish lozim.

Hozirgi kundagi globallashuv jarayonlari va ularda kuzatilayotgan ma’naviy tahdidlar, ayniqsa, yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tizimida asosiyligi e’tibor qaratilayotgan o‘quvchilarning axborot vositalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish, ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy axborot vositalarining rolini oshirish muhim masalalardani biri hisoblanadi.

Yoshlarda tashabbuskorlikni shakllantirish dialektik bog‘lanishlar, ya’ni intellektual – anglash, emosional-qadriyat, amaliy faoliyat elementlariga bog‘liq. Shuning bilan bira yoshlarda muhim insoniylik fazilatlari va sifatlarini shakllantirish, jamiyatning turli sohalarida bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglashi, bilishi va unga moslashishga tayyor bo‘lishi yosh avlodni rivojlanishida asosiyligi maqsad hisoblanadi. Bunda yoshlarning davlat ramzlarini bilishligi talab etiladi. Shuning bilan birga mamlakatda olib borilayotgan siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, konstitusiyaviy huquq va majburiyatlarni to‘g‘ri tushunib anglashni taqozo etadi.

Tashabbuskorlik bugungi kunda yoshlarning ruhiy-insonparvarlik holatini belgilovchi faktor hisoblanib, jamiyatning mo‘tadilligi, davlatning xavfsizligi va mustaqilligini ta’minlaydi. Shuning uchun ham yoshlarni tashabbuskorlik ruhida tarbiyalashning negizida tarixiy ongning shakllanishi yotadi. Tarixiy tarbiya – kelib chiqish avlod ajodolarimiz, urf-odatlarimizni bilish bilan bevosita bog‘liq. Jamiyatning dunyo miqyosida tutgan o‘rni, ko‘pmillatligi, tarixiy jarayonlar, urf-odatlar, diniy e’tiqod, mintalitet xususiyatlarini tushinish, tashqi axborot xurujlaridan himoyalanish darajasi bilan ifodalananadi.

Internet tarmog‘ining afzalligi shundaki, ixtiyoriy sizni qiziqtirgan ma’lumotni bir zumda izlab topishingiz va uni qayta ishlasshingiz mumkin. Har bir yosh o‘zini qiziqtirgan sohaga oid elektron axborot resurslari jamg‘armasini yaratish imkoniyati, uning ijodiy faoliyat olib borishiga olib



keladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yoshlarning yetuk mutaxassis bo‘lib etishishiga, vatanparvarlik ruhida shakllanishiga zamin yaratadi. Ularning ma’naviy bilim saviyasi oshadi, dunyoqarashi, vatanga, oilaga, jamiyatga nisbatan vatanparvarlik ruhi, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni to‘g‘ri tahlil qilishlari asosida tashabbuskorlik hislatlari namoyon bo‘la boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kuchukbaev F. va b. O‘quvchi shaxsiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi internet saytlari va teleko‘rsatuvlarning ularda salbiy his – tuyg‘ularni vujudga keltirishning oldini olish bo‘yicha profilaktik korreksion dastur. – T.: 2016
2. Mo‘minov F. Axborot xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyot// O‘zbekiston matbuoti, 2007. 6-son.



**5-SINF O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI BAHOLASHDA E'TIBOR
QARATISH LOZIM BO'LGAN JIHATLAR**

Aburazzokova Zulfiya Abdurahmonovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
191-sonli umumiy o'rta ta'lif mabktabi
o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-sinf o'quvchilaridagi lisoniy imkoniyatlarni hisobga olgan holda yozma nutqidagi ijodiy va ilmiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan metodik tavsiyalar o'rinni olgan. Berilgan tavsiyalar asosida tadqiqot ishlari o'tkazilgan va tajriba natijalari uch asosiy parametr asosida umumlashtirilgan. Bu talablar o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrashiga qaratilgan. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirish uchun beriladigan topshiriqlar ham shu parametrlar asosida soddadan murakkab fikrashiga olib boradigan usulda tuzilgan.

Kalit so'zlar: persepsiya, lisoniy malaka, nutqning mazmundorligi, lug'at boyligi, nutqning tushunarligi.

Annotation. This article includes methodological recommendations that are related to developing creative and scientific thinking in written speech, taking into account the linguistic potential of 5th grade students. The researches were conducted on the basis of the given recommendations and the results of the experiments were summarized on the basis of three main parameters. These requirements focus on students' logical and creative thinking. The assignments that are designed to enhance students' written speech are also structured on the basis of these parameters and in a way that leads to complex thinking from simple thinking

Keywords: perception, linguistic skills, content of speech, richness of vocabulary, comprehensibility of speech.

Zamon taraqqiyotining jahon miqyosida jadallahushi, tezkor axborot uzatish va olish zaruriyatining oshishi o'quvchilarda nutqiy kompetentlikni, ravon va aniq bo'lgan nutq malakasini o'stirishni, ulardagi ilmiy-ijodiy tafakkurni maqsadli yo'naltiruvchi topshiriqlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bunday talab asosan maktablardagi ona tili darslari zimmasiga tushadi. Maktablarda ona tilini o'qitishda asosiy e'tibor til qoidalarini yod olish, til hodisalarini tahlil qilish kabi nazariy bilimlarni egallashga qaratilgan. Nutq madaniyati – so'z boyligi, og'zaki va yozma nutq taraqqiyoti, uslubiyat masalalari ilmiy grammatizm soyasida qolib, ularga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash odad tusiga kirdi [4. 80-bet]. Tilga doir nazariy nazariy bilimlarni egallash o'z davrida katta ahamiyat kasb etgan, ammo bu yondashuv bugungi kunning talablari uchun yetarli bo'lmay qoldi.

Bunday vaziyatda umumiy o'rta ta'lif maktablari ona tili darslarida mustaqil fikrash, nutqiy bilimlarni og'zaki va yozma tarzda to'g'ri ifodalash masalasi ustuvor mavqeni egallab bormoqda. Xususan, M. Rixsiyevaning "Ta'lif rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish", H. Muhitdinovaning "Ta'lif boshqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzlucksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish", N. Sattorovaning "O'quvchilarning insho yozish malakalarini shakllantirish" nomli tadqiqotlari fikrimizning isbotidir.

O'quvchilarda matn yaratish kompetensiyaning shakllantirishning innovatsion texnologilari borasida ish olib borayotgan f.f.n dotsent T. Ziyodova ushbu yo'nalishda MYBT -4 (Matn yaratishning to'rt bosqichli texnologiyasi) ni taklif qiladi. Bu texnologiyada, o'quvchilarga shunday topshiriq yuklatiladi:

"1-bosqich. Tayanch so'zlarni tanlash (uyadosh, ma'nodosh, zid ma'noli);

2-bosqich. So'z birikmasini hosil qilish ("Ot + ot", "olmosh + ot", "sifat + ot", "ot + fe'l");

3-bosqich. So'z birikmasidan gap tuzish (sodda yoyiq va sodda yig'iq, kirish so'z va kirish gapli, sodda va qo'shma gaplar);

4-bosqich. Gaplardan matn yaratish (monologik, ramziy matnlar)" [7. 23 – 29-betlar].

Lekin bu usul bizningcha, xuddi shu ko'rinishdagi topshiriq sifatida o'quvchilarga berilsa, ular uchun bu birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Chunki ko'rinib turganidek, bu texnologiya grammatikaga asoslanadi va o'quvchilarning matn tuzishdagi erkinligini cheklaydi. Grammatik qoidalardagi xatoliklar o'quvchining og'zaki va yozma nutqini tekshirishda baho tushiradigan



asosiy sabab bo‘lib qolmasligi kerak. 5-sinf ona tili darsligidagi mashq va topshiriqlarning o‘quvchilardagi yozma nutqni o‘stirishga qay darajada xizmat qilishini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, mashqlarning ko‘pgina qismini o‘quvchilarning ijodkorligini o‘stirish uchun xizmat qiluvchi o‘tilgan mavzuga mos bayon, hikoya, kichik matn kabilarni tuzish topshiriqlari berilgan, lekin bunday topshiriqlarga Grammatik vazifa ham yuklatilgan bo‘ladi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligidagi “So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar” mavzusining 94-mashqida buni ko‘rishimiz mumkin: “Qarisi bor uyning parisi bor” mavzusida matn tuzing. Unda so‘roq olmoshlari ishtirok etgan so‘roq gaplardan foydalaning” [5. 30-bet]. O‘quvchilarning ko‘pchiligi uyda kimningdir yordamida matn tuzishadi, undagi so‘zlarning grammatick vazifasiga e’tibor bera olmaydi, yoki bunday qo‘srimcha topshiriq ularni chalg‘itadi. Shunday ekan, matn tuzish uchun berilgan topshiriqlarda o‘quvchilarning diqqatini bir tomoniga yo‘naltirgan mavzularga qaratish lozim, ya’ni ular uchun qiziq bo‘lgan sarlavha asosida matn yaratish topshirig‘i berilishi va unda asosan, mazmunga e’tibor qaratishlari kerakligi aytilishi lozim. Nutqni o‘stirishda ularning lisoniy malakasini va qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘quv topshiriqlarini berib borish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchi nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida hamda ona tili darslarni samarali tashkil etish uchun an‘anaviy subyekt-obyekt emas, balki subyekt-subyekt tarzi barchaga birdek manzur bo‘lmoqda. Unda o‘quvchi ta’lim jarayonining ishtirokchisi emas, ijrochisi, kashfiyotchisi hisoblanadi. O‘qituvchi esa tushuntiruvchi, nazorat qiluvchi, baholovchigina bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarni mavzuga yo‘naltiruvchi va boshqaruvchi vazifasini bajaradi.

Buni XX asrning 60-yillarda Osiyo va Yevropaning rivojlangan davlatlari ta’lim tizimiga kirib kelgan kognitivizm hodisasiiga bog‘lashimiz mumkin. O‘sha davrda bu hodisa ancha keng ommalashdi. Bunda kognitivizm o‘quvchi bilimining ko‘proq og‘zaki yo‘sinda bayon etilishi (verbal tizim) bilan birlashib, ongli verbal-kognitiv ta’lim yo‘nalishi paydo bo‘ldi (OVKT). Bu yo‘nalishga taniqli pedagog D. Ozbel asos solgan bo‘lib, u ta’lim jarayonida “Discovery” ya’ni kashfiyot yetakchi usul ekanligini ta’kidlaydi [3. 191-bet]. Bu usulning mohiyatida ta’lim oluvchini har bir topshiriqni bajarishi paytida yangi hodisalarini kashf etish yoki nimanidir yaratish bilan shug‘ullanishi yotadi. Ushbu jarayonda onglilik (ing. *Meanigool learning*) yetakchilik qiladi. Ingliz tadqiqotchisi Ann Raimes o‘z maqolasida o‘qituvchilar uchun bolalarda yozma nutqni o‘stirishning o‘nta bosqichli rejasini ko‘rsatib o‘tgan. Ulardan biri taklif va fikr-mulohazalar yordamida mashg‘ulot turini tanlash bosqichidir. Ya’ni bunda o‘quvchining ehtiyoji hisobga olinadi, bolalardan talab va takliflar yozma ravishda so‘raladi. Shu asosida dars mashg‘ulotlarining turi tanlab olinishi ko‘zda tutiladi [1. 306 – 315-betlar].

Aytigan takliflar va tajribalarga asoslangan holda poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 114-maktabning 5- sinf o‘quvchilari ishtirokida tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning tinglab, o‘qib, ko‘rib tushungan holda yozma matn yaratishlariga imkon berildi. Shunga ko‘ra, 5-sinf o‘quvchilari yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan matnlarni tanlashda, asosan, shu jihatlarga e’tibor berdik, ya’ni shu yoshdagi o‘quvchilarga tushunilishi mos bo‘lgan, ular yoshidagi bolalarni qiziqtira oladigan matnlarga e’tiborimizni qaratdik. Bu mazmun jihatdan boy bo‘lgan bayon yaratishlari uchun muhim omil hisoblanadi. O‘quvchilarning tanlangan matnni tushunish jarayoni shu asosda darajalandi hamda tahlil qilindi:

1. Assotsiativ daraja – tayanch matnning uslubi, unda qo‘llanilgan so‘zlarning ma’nosи, o‘qib berilgan matn tarkibida yo‘q so‘zlardan foydalanganligi yoki so‘zlarning sinonimlarini qo‘llaganligi.

2. Struktural daraja – tayanch matndagi mazmuniy jihatdan ajratilgan tarkiblarning ketma-ketligi, ularning o‘zaro bog‘lanishi.

3. Matn darajasi – o‘qib eshittirilgan matnning yaxlit holda hosil qilinishi. Bunda eshittirilgan matn mazmun va shakl jihatdan to‘ldirilgan holda bayon qilinadi, lekin tayanch matnning oldingi mazmuniga putur yetkazilmaydi [2. 88-bet].

Matn tushunish jarayoni yuqorida sanab o‘tilgan parametrlar asosida darajalangan bo‘lsa, ularning yozma nutqida aks ettirishini tekshirish va bahoshda ham alohida talablar hisobga olindi:

1. ***Nutqning mazmundorligi*** (3 ball)– bunda matn tarkibida asosiy fikrning mavjudligi (1 ball), axborot dillarning muhimligi (1 ball), berilgan axborotning yangiligi (1 ball).

2. ***Yozma nutqning tushunarligi*** (2 ball)– yaratilgan matn qay darajada mantiqiyligi (1 ball) hamda tilning aniq va ravshanligi (1 ball).

3. ***Nutqning ifodaliligi*** (1 ball)– lug‘atning boy yoki sayozligi (1 ball) [6. 26-bet].



Jami: 6 ball

Ayni damda bu tadqiqot ishlari davom etmoqda. So‘nggi xulosa chiqarilmagan bo‘lsa-da, o‘quvchilar yozma nutqida mustaqil fikrlash ko‘nikmasi hosil bo‘lmoqda.

Tajriba sinfiga berilayotgan topshiriqlar, nafaqat, ularni ijodiylikka, balki mantiqiy fikrlashga undaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o‘quvchilarning yozma nutqini o‘sirishga qaratilgan topshiriqlar ular yoshiga mos, absurd tushunchalardan xoli, ular uchun qiziqarli bo‘lgan matnlar yaratishiga imkon beradigan bo‘lishi lozim. Bunday tarzda fikrlashga o‘rgatish o‘quvchilarda maktabdagi ona tili darslarida zerikib qolmaslik bilan birga jahondagi ta’lim standartlariga muvofiq kadrlar yetishtirib chiqishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ann Raimes. Ten steps in planning a writing course and training teachers of writing // Methodology in language teaching. 2002. O‘z tarjima
2. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi (monografiya): F.f.n.dis. –T. O‘zMU, 2008.
3. Bushiy T., Safarov Sh. Til qurilishi: Tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent. 2007.



YOSHLARDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Hojirahmatova Olmaxon Tursunovna

Farg‘ona yuridik texnikumi axborot resurs markazi rahbari

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlarda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishning ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ommaviy vositalar, madaniyat, internet.

Mustaqillik yillarda yoshlarni har jihatdan barkamol, yuksak ma’naviyatli, yetuk malakali mutaxassislar etib tarbiyalash va Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, yosh avlodnining kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib voyaga yetishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Shuningdek, o‘zbek xalqi o‘z mustaqilligi qo‘lga kiritganidan buyon yoshlarimiz va bolalarimiz ma’naviy-axloqiy tarbiyasi tizimida Vatan tuyg‘usi, vatanga e’tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va milliy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, ularni o‘z xalqi va vataning sodiq farzandlari qilib tarbiyalash hayotimiz ma’naviyati va mazmuniga aylanmoqda.

Yoshlar ma’naviyatini shakllanishida milliy ma’naviy qadriyatlarning ahamiyatini oshirish, ularni milliy an’analarga sodiq ruhda tarbiyalash, barkamol shaxs etib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bugungi kunda tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, yoshlarimizning ijtimoiy qiyofasida quyidagi o‘ziga xos ikki turdagи qarama-qarshi holatlar namoyon bo‘lmoqda ya’ni ijobjiy va salbiy holatlar.

Bulardan birinchisini ijobjiy holatlar deb olsak, ular quyidagilardir: mustaqillik, islohatlar, yangilanish, modernizatsiya va liberalizatsiya jarayonlariga kamrabastalik, islohatlar mohiyatini chuqur anglash, islohatlar maqsad va mazmunini qo‘llash, yangi munosabatlarga intilish, izlanish, o‘z ijtimoiy mavqeiga ega bo‘lish uchun harakat, o‘zi va idrokiga ishonch, salohiyatini jamiyat taraqqiyoti uchun sarflash, ijtimoiy jur’at, anglangan faollik, huquqiy savodxonlik, erkin fikr yuritish, qat’iylik, shaxs sifatidagi komillikkа erishish, o‘z hayotini jamiyat rivoji bilan bog‘lash, bunyodkorlik ishlariga tayyorgarlik, hayotga ochiq nazar bilan qarash va sof ko‘ngillikdir;

Bugungi kunda yoshlar ijtimoiy qiyofasining o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri yoshlarining yangi axborot uzatish vositalari va texnologiyalarini o‘zlashtirish, internetdan foydalanish qobiliyatini kundan-kun o‘sib borayotganligidir.

To‘g‘ri, ayrim yoshlarimiz internet tarmog‘idan foydalanish orqali fanlarga oid yangiliklarni, ilmiy-texnikaviy yangiliklarni, ma’lumotlarni o‘zlashtirmoqda, til o‘rganmoqda, kompyuter savodxonligi yuqori bo‘lmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunga kelib internet eng samarali va ta’sirchan ommaviy axborot vositalaridan biriga aylanib ulgurdi. Eng muhimi, bugun internet insoniyat madaniyatini rivojlantiruvchi omil vazifasini o‘tamoqda. Zero, global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri xavf-xatarlari, shu bilan birga jahoning mamlakatlarida uyushgan jinoiy guruhlar va terrorchi tashkilotlarning saytlari mavjudki, ular orqali yoshlarning turmush tarziga, ijtimoiy qiyofasiga to‘g‘ri kelmaydigan yot g‘oyalari va amallar targ‘ib qilinayotganligini, internetning har yuzinchi sahifasining pornografik mazmunga ega ekanligi yosh avlodning tarbiyasiga, hulq-odobiga zarar etkazishi mumkinligini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlar, fikrlarga tayangan holda, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O‘quvchi-yoshlarning ommaviy axborot vositalaridan xususan, turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirishda quyidagi tavsiyalarga e’tibor berish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, o‘qituvchilarining ta’lim berish jarayonida zamonaviy axborot vositalari materiallaridan keng miqyosda foydalanishiga erishish.

Ikkinchidan, o‘quvchilarining zamonaviy axborot vositalariga nisbatan bilim manbai sifatida qarash kayfiyatini va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

Uchinchidan, har bir oilada ota-onalarning o‘z farzandlarini zamonaviy axborot kommunikasiya tarmoqlari orqali yoritilayotgan ma’lumotlarning tarbiyaviy ruhdagi chiqishlariga diqqatini oshirishda faol bo‘lishga erishish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

3. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahidlardan himoya. – T.: 2016
4. Mo‘minov F. Axborot xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyot.// O‘zbekiston matbuoti, 2007. 6-son.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TASVIRIY FAOLIYATI

Vadinova Shahnoza Sobirjonovna

Toshkent pedagogika kolleji psixologiya fani o'qituvchisi

Kuziyeva Dildora Alijonovna

Toshkent pedagogika kollejining 1- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy va, xususan, estetik jihatdan tarbiyalashda tasvirlash faoliyati juda katta ahamiyat kasb etadi deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, texnologiya, ilmiy, ta'lif, rassom, haykaltarosh, naqqosh, ko'nikma, tasviriy san'at va to'q ranglar.

Kirish. Tasviriy san'atning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni etishtirib chiqarish vazifasi turibdi. Bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida tasvirlash faoliyatlarining roli kattadir. Maktabgacha yoshdagibolalar rasm chizish, loydan yoki plastilindan turli narsalarni yasash, kubiklardan imoratlar, ko'priklar qurishni juda yoqtiradilar. Bolalar o'zlarining tasvirlash faoliyatlarida qandaydir g'ayri tabiiy, xayoliy narsalarni emas, balki tashqi muhitni, undagi narsalarni, jonivorlarni aks ettirishga intiladilar. Bolalarning bunday faoliyatlarida ijodkorlik, yaratuvchanlik elementlari bo'ladi. Bolalar o'zlaridagi istak, xohish, intilishlarni ana shunday tasvirlash, rasm chizish, loy yoki plastilindan biron narsa yasash, applikastiya ishlari orqali ifodalashga intiladilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatları juda sodda bo'lsada, ular o'zlarining bunday faoliyatlarida atroflaridagi narsa va hodisalarini shunchaki passiv tasvirlash bilan cheklanib qolmay, o'zlaridan nimalarnidir qo'shib, yangilik yaratishga harakat qiladilar. Ana shuning uchun bolalardagi ayrim qobiliyatlar ularning tasvirlash faoliyatlarida juda erta namoyon bo'la boshlaydi.

Ma'lumki, odam tug'ilishdan rassom, haykaltarosh, naqqosh bo'lib tug'ilmaydi. Odamdag'i bunday qobiliyatlar uning yoshligidan tasvirlash faoliyati bilan shug'ullanishi jarayonida yuzaga kelib, takomillashib boradi. Masalan, biz chaqaloq bolalarda hech qanday tasvirlash faoliyatini ko'rmaymiz. Bunday faoliyat bolaning taxminan ikki-ikki yarim yoshidan boshlab yuzaga keladi. Chuiionchi, ikki yoshli bola qalam bilan (to'g'ri kelganicha ushlab olib) nimalarnidir chizib tashlaydi va o'zining egri-bugri chiziqlarini «bu daraxt», «bu odam», «bu uy», «bu mushuk»—deb tushuntiradi. Bu yoshdagi bolalar rasm chizayotganlarida biron narsani tasvirlashni maqsad qilib olmaydilar. Keyinchalik chizgan chiziqlariga qarab, miyalariga kelgan birinchi nom bilan ataydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatlaridagi bu davr tayyorgarlik davri deb ataladi.

Bolalarning tasvirlash faoliyatları asosan o'rta va katta guruhdan boshlanadi. Lekin bu davrdagi tasvirlash faoliyatları ham ko'p jihatdan sxematik xarakterga ega bo'ladi. Masalan, bolalar odamning rasmini chizganlarida bitta kichik va bitta kattaroq doyra chizib, shundan qo'l va oyoqlarni chiqaraveradilar. Ular rasm chizganlarida yoki biron narsaning haykalini yasaganlarida hajm, perspektiva masalalariga mutlaqo rioya qilmaydilar. Ana shuning uchuy ularning chizgan rasmlari hajm (o'lchov) jihatidan juda katta yoki juda ham kichkina bo'lishi mumkin. Buning sababi nimada?

Birinchidan, maktabgacha yoshdagibolalarda katta odamlardagidek kuzatuvchanlik qobiliyati yaxshi rivojlanmagan bo'ladi va ular chizayotgan rasmlaridagi obyektlarni real voqelikdagi haqiqiy narsalar bilan solishtirmaydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatları asosan tasavvurlariga asoslanadi. Masalan, 4—5 yoshli bog'cha bolasiga onasining rasmini chizish taklif qilinganda, u biron marta ham onasiga qaramay, rasm chiza boshlagan. Undan nega onangga qaramading, deb so'raganlarida, u o'zim juda yaxshi bilaman, deb javob bergen. Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyatining shu qadar sodda bo'lishiga ikkinchi sabab ularda ayrim murakkab harakat - malakalari hali yuzaga kelmaganlidir. Bundan tashqari bolalar tasvirlash faoliyati bilan shug'ullanayotganlarida tasvirlayotgan narsalarini real voqelikdagi narsalarga o'xshatishni maqsad qilib qo'ymaydilar. Ular tasvirlash faoliyatini ham o'yin tarzida o'tkazadilar. Ularni tasvirlash faoliyatining natijasi emas, balki tasvirlash faoliyatining o'zi qiziqtiradi, xolos. Bolalarning tasvirlash faoliyatları rejali, izchil ravishda emas, balki tezkor ravishda



tashkil qilinadi. Ana shuning uchun bola bunday faoliyat davomidayoq voqelikni chuqur va to’la kuzatmay, o’z tasavvurlarigagina asoslanib qo’ya qoladi.

Agar tarbiyachi bolalarning tasvirlash faoliyatlarini izchil tarzda tashkil qilib, bu ishni pedagogik jihatdan to’g’ri yo’lga qo’ysa, bolalarning tasvirlash faoliyatiga bo’lgan munosabatlari o’zgaradi. Bolalar oldiga qat’iy bir maqsad qo’yib, ana shu maqsadni amalgalashish buyurilsa, bolalar tasvirlash faoliyatini o’yinga aylantirmay ishga nisbatan jiddiy munosabatda bo’la boshlaydilar. Masalan, bayram o’tgandan so’ng bolalarga bayram rasmini chizish taklif etilsa, ular bu vazifani bajonudil bajaradilar.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni aqliy, axloqiy va, xususan, estetik jihatdan tarbiyalashda tasvirlash faoliyati juda katta yordam beradi. Shuning uchun ham bolalarning tasvirlash faoliyatlarini har doim maqsadga muvofiq ravishda pedagogik jihatdan to’g’ri va qiziqarli tashkil qilishga e’tibor bilan qarash zarur. Bolalar rangli qalamlar, rangli bo’yoqlar bilan rasm chizish va rangli qog’ozlardan turli aplikastiyalar yasash bilan uzoq muddat davomida shug’ullanishni yoqtiradilar. Lekin bolalarning ranglarga bo’lgan munosabatlari o’ziga xosdir. Ular o’zlariga yoqqan narsalarni juda yorqin, chiroyli ranglar bilan bo’yaydilar, o’zlari yoqtirmagan narsalarni esa qora, to’q ranglar bilan bo’yaydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatları ularning xayol va hissiy jarayonlariga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Chunki u qanday tasvirlash faoliyati bilan mashg’ul bo’lmashinlar ishlariga befarq munosabatda bo’lmaydilar. Tasvirlash faoliyati orqali qilgan ishlarini, chizgan rasmlarini ko’zga ko’rinadigan joyga namoyish qilib q o’yadilar.

Maktabgaha yoshdagagi bolalarning qurish-yasash mashgulotlari ularning kuzatuvchanligi va tafakkurining rivojlanishida alohida ahamiyatga egadir. Qurish-yasash o’yinlari hamisha ma’lum maqsadga qaratilgan o’yinlar bo’lib, bolalardan murakkab uquv, malaka va bilimlarni talab qiladi. Qurish-yasash o’yinlarida bolalar turli narsalarning detallari (ya’ni ayrim qismlari) faqat tashqi tomon dangina emas, balki ichki tomon dan ham o’zaro uzviy bog’liq ligini bilib oladilar.

Odatda biron narsani qurish-yasashga kirishishdan, ya’ni konstrukstiyalashdan oldin uni sinchiklab qarab chiqiladi va diqqat bilan idrok qilinadi. Undan so’ng kerakli qismlarni to’plab ishga kirishadilar. Qurish-yasash o’yini rasm chizish yoki aplikastiyaga nisbatan bolalardan butunlay boshqa malaka va uquvlarni talab qiladi. Shuning uchun qurish-yasash ishlari bilan hamma bolalar juda qiziqsalar ham ilk yoshdagagi bolalar bu ishning uddasidan chiqqa olmaydilar. Ularga ayrim malakalar, epchillik, tajriba yetishmaydi. Bu yoshdagagi bolalar yog’och va taxtachalarpi ustmasht qo’yib, ko’prikka o’xshagan narsalar yasashdan nariga o’ta olmaydilar. Kattaroq yoshdagagi bolalar esa rasmliga (andazaga) qarab turli narsalar yasashni uddasidan chiqqa oladilar.

Qurish-yasash ishlari bilan bolalar yolg’iz o’zlari va jamoa bo’lib shug’ullanishlari mumkin. Har ikki holda ham qurish-yasash faoliyati bolalarning idroki, diqdati, kuzatuvchanligi, xotirasini hamda tafakkur qilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachilar qurish-yasash o’yinlarini tashkil qilishda bolalarga ko’rsatma va yo’llanma berishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki. Bajarilgan o’quv topshirig’iga nisbatan bolalarda o’zini nazorat qilish va baholash ko’nikmalari yuzaga keladi, ko’p hollarda maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar o’zlari istamagan holda, oson tuyulgan topshiriqlarni bajaradilar, va bola nuqtai nazarlaridan qaraganda, erishilgan bilim va qobiliyat darajasiga mos keladigan natijaga intiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Yusupova P. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”. T. O’qituvchi, 1993.
2. Xasanboyeva O. U. va boshq. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. T. Ilm ziyo, 2006.
3. Sodiqova Sh. A. “Maktabgacha pedagogika”. T. Tafakkur bo’stoni, 2013
4. Kayumova. N “Maktabgacha pedagogika” T. TDPU ,2013.
5. Qodirova. F., va boshqalar. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”, 2013



PROVERBS WITH NUMERAL COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Lolayeva Zarima Abdixoliq qizi,
MA student, Uzbekistan State University of World Languages

Abstract: The article contains information about proverbs in English and Uzbek and their types. An analysis of proverbs with a numerical component in these languages is provided.

Key words: Proverbs, paremiological units, folklore, paremia, correspondence, numeral component.

Proverbs as paremiological units of a language. Paremiias (from Greek “paromia” – a dictum, a parable) are universal phenomena characteristic of all the world languages. In the 70s of the XX century and beginning of the XXI century the linguistic and folklore studies and other related scientific disciplines gave a strong push to the development of the modern paremiology – a special science researching proverbs, sayings, aphorisms and other paremiological units.

The generally adopted opinion is that a proverb is a paremiological unit which is grammatically correlated with a sentence: it cannot be less of a sentence and at the same time cannot exceed it according to the volume. It means that according to the grammatical structure a proverb has the form of simple, compound and complex sentences.

In spite of the fact that a proverb has a simple external structure external structure it is a very complicated language phenomenon and up to present time there is no unanimously recognized definition of proverbs among the scholars.

But in order to give a definition to proverb first of all it is required to single out its most important and general peculiarities.

A.A.Potebniya pointed out some essential features of the proverbs such as their brevity, figurativeness. [Потебня 1930].

V.I.Dal also found in the proverbs all the beauties of rhetoric: metaphor, allegory, hyperbole, metonymy, synecdoche, irony, opposition, ambiguity, personification, etc. which are also specific for folksongs and fairytale genres of the folklore. [Дал 1984: 16; 18; Дал 2006: 14]

V.I.Dal studies other types of paremiias too: tongue twisters, facetious sayings, riddles, sayings and others. According to him from all above mentioned genres of the folklore the sayings are closest to the proverbs. “A saying according to the definition of the people is a flower and a proverb is a berry(fruit) and it is true. A saying is a non-direct expression, figurative speech, simple allegory, beating about the bush, a way of expression, but without a judgment, conclusion, application, it is one half of the proverb [Дал 2006:11]

In the Uzbek language “maqol” means “a proverb” and in the dictionary the following definition is given: a proverb is: “a brick, laconic, image-bearing and wise dictum usually having edifying meaning created on the basis of life experience of the people with a sentence structure [Ўзбек тилининг изоҳли луғати Т.1.981:456].

In the dictionary “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” the definition to the proverb sounds in the following way: “A proverb is a genre of the people’s art; a brief and capacious, image-bearing, wise dictum having grammatically and logically completed meaning, a sentence with depth of thought and has a definite rhythmical form [Ўзбекистон миллий энциклопедияси Т.5. Б.543].

A proverb as a specific type of the paremiias has its own distinctive features: 1) national characteristic feature; 2)ancient origin and topicality of usage; 3)metaphorical character; 4) allegorical character; 5)generalized meaning; 6)edifying character; 7)imagery; 8)emotive charge; 9)brevity and locanism; 10)structural-semantic completeness

On the basis of the above mentioned peculiarities of the proverbs P.U.Bakirov proposes the following definition: “Proverbs are structurally and semantically completed laconic folk dicta in the poetic, allegorical and edifying character” [Бакиров 2007:38-39].

The analyses of proverbs showed that, the structure of English and Uzbek proverbs mainly partially corresponds: No man can serve two masters - Ikki kemaning boshini tutgan g’arq bo’lar; One today is worth two tomorrows - Bugungi tuxum ertangi tovuqdan yaxshi; The first breath is the beginning of death - Bir kun tug’ilmoq, Bir kun o’lmoq bor; An ass between two bundles of



hay - Ikki quyonning ketidan quvgan, ikkalasidan ham quruq qolar;

Complete correspondence of proverbs with numeral component is rarely observed: One swallow does not make a summer – Bir gul bilan yoz bo’lmas; Two heads are better than one - Bir kalla — kalla, Ikki kalla — tilla; There are two sides to every question - Har yaxshida bir “ammo” bor. Har yomonda – bir “lekin”;

Some English proverbs not containing numerals have numeric elements in Uzbek equivalents: Appetite comes with eating - Borga yetti kun xayit, yo’qqa – bir kun; Murder will out - Qiyiq ish qirq yildan keyin ham ochiladi; What you lose on the swings you gain on the roundabouts – Bir eshik ochiq bo’lsa, bir eshik yopiq;

It takes all sorts – Odamning odamdan farqi bor, yuz ikki xil narxi bor.

In it’s turn some other English proverbs do not contain numerals in Uzbek equivalents: Saying is one thing and doing another - Gap – boshqa, ish – boshqa; When three know it, all know it - Siringni birovga aytma, Aytsang, sir dema; Possession is nine points of the law - Borning ishi farmon bilan, Yo’qning ishi armon bilan; All bread is not baked in one oven - Har supranging noni bor; A penny soul never came to two pence - Arzonning sho’rvasi tatimas; Self-preservation is the first law of nature - Har kimning joni o’ziga shirin. A wonder lasts but nine days - Har narsa o’z vaqtida qiziq; There is one good wife in the country and every man thinks he has her - Har kimniki o’ziga, Oy ko’rinar ko’ziga; It is the first step that costs – Har bir ishning chamasi bor, har daryoning kemasi bor; It chanced in an hour that happened not in seven years – Ko’za kunda sinmaydi, kunida sinar.

In conclusion, we can say that both English and Uzbek languages are rich in proverbs, the Uzbek proverbs contain more numerals than English ones.

References:

1. O’zbek xalq maqollari. Toshkent, ”Fan” nashriyoti, 1984
2. The Oxford Dictionary of Proverbs (Oxford Guck Reference) 6th Edition by Jennifer Speake. Oxford University Press 2015.
3. Даль В.И. Пословицы русского народа. М: Эксмо, Изд-во ННН, 2006.
4. Потебня А.А. Из лекций по теории словесности. Басня. Пословицы. Поговорки. Изд. 3- Хапыков, 1930.



O'QUVCHILARDA NUTQIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Muydinova Dilnavoz Najmiddinovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
191-sonli umumi o'rta ta'lif maktabi
o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson hayotida nutqning ahamiyati, nutqning doimiy o'sib boruvchanligi, oilada, jamiyatda va ta'lilda nutqning rivojlanish xususiyatlari aks etishi, ayniqsa, ona tili ta'lilining jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan vazifasi – o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqqan holda, dars jarayonida nutqni og'zaki va yozma tarzda bayon etishga o'rgatish, o'quvchi lisonidagi so'zlardan o'rinli foydalanish, uni yuzaga chiqarish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ongli ta'limi faoliyat, pedagogik ta'sir, nutq, kamiste'mol so'zlar, aqliy mehnat, ta'riflash, tasvirlash.

Annotation. This article reflects the importance of speech in human life, the constant growth of speech, the developmental characteristics of speech in the family, society and education, especially the role of mother tongue education among members of society - to express schoolboys' opinions based on the task of preparing for the activity, in the course of the lesson the idea of teaching to express speech orally and in writing, the appropriate use of words in the schoolboy's language and its manifestation was considered.

Keywords: Conscious educational activity, pedagogical influence, speech, rarely used words, mental labor, definition, description.

Ona tilini o'qitish jarayonida bolalar nutqini rivojlanirish, birinchi navbatda, ularning so'z boyligini oshirishni taqozo etadi. O'quvchilarni doimiy ravishda ular birinchi marta duch kelayotgan yangi so'zlar hamda fan-texnika taraqqiyoti natijasida tilimizga kirib kelayotgan yangi so'zlar bilan tanishtirib borish, so'zlarning yangi ma'no qirralarini, tildagi kamiste'mol so'zlarni seriste'mol so'zlarga aylantirish, adabiy til uchun zid bo'lgan so'zlarni o'quvchilar nutqidan chiqarib tashlash faqat ona tili fanining emas, balki maktabda o'qitilayotgan barcha fanlarning, shuningdek, oila va jamoatchilikning asosiy vazifasidir

Har bir sinfda nutqiy kompetensiyaga ona tili darslarida o'rganiladigan jami bilim, ko'nikma va malakalarga to'la erishilganlik natijasi sifatida qaramasligi lozim: u darsdan darsga, sinfdan sinfga oz-ozdan o'rganiladigan til hodisalari vositasida hosil qilib boriladi, maktab ona tili ta'lilda nihoyasiga yetmaydi. Inson o'zidagi tildan foydalanish imkoniyatlarini umr bo'yiboyitish harakatida bo'ladi. Darsda esa: "Bunda mana bularni bilmas, og'zaki va yozma nutqda xatolarga yo'l qo'yardi-yu, o'qib-o'rganish natijasida to'g'ri gapiradigan va yozadigan bo'ldi" kabi xulosalar bilan ish ko'rildi. Qoidani eslab xatoni tuzatish esa ko'nikma darajasidagi **ongli ta'limi faoliyat** sanaladi[2. 24-bet].

So'zlovchining nutq saviyasi biror erishilgan holatda qotib turmaydi: til muhit ta'sirida rivojlanuvchan, harakatchan va pragmatikaga moyil bo'ladi. "Tayyor bilimlar, tayyor nutqiy namunalar kor qilmaydigan dori-darmonlar kabi o'quvchi nutqini o'zgartirmaydi" [2. 21-bet]. M. Yo'ldoshevning fikricha, dars loyihasi tuzilayotganda "zarur bo'lgan pedagogik ta'sirni ham aks ettirish lozim" [3. 38–39-betlar]. Pedagogik ta'sir tufayli har bir dars, har bir ish turi o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi, ularni aqliy faoliyat ko'rsatishga undashi, nutq tuzilishini o'rganish orqali qanoat hosil qilishi kerak. Bunda 5–11-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni "tahlilga", "o'ylashga", "izlanishga" undaydigan, ularda qiziqish uyg'otadigan, ruhiy safarbarlikni yuzaga keltiradigan aqliy mehnatni talab etadigan mashqlar zarur.



Savol: Ushbu suratni ko‘rganiningizda xayolingizga nima keladi va suratni tasvirlang.



Savol: Ushbu suratni ko‘rganiningizda xayolingizga nima keladi va suratni tasvirlang.

Bunda, asosan, mantiqiy, o‘quvchini o‘ylantiradigan suratlardan foydalaning. O‘quvchi ranglar, harakatlar va belgilarga ahamiyat beradi va ularning ma’no-mazmunini yoritib beruvchi so‘zlarni qo‘llashga harakat qiladi. “Tasvirlash” – bu tafakkurni ishga solishdir. Ayniqsa vizual tasvirlash o‘quvchining so‘zlar, ma’nolar va fikrlar chegarasini kengaytiradi. Shuning uchun ham bu usuldan foydalanish samarali. O‘quvchilar nutqini o‘sirish ishlari zo‘r tayyorgarlikni, materiallarning xilma-xil va qiziqarli bo‘lishini talab etadi va asosan, dastlabki davrlarda og‘zaki tarzda olib boriladi. Nutq o‘sirish ishlarining xilma-xil tarzda o‘tkazish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, lug‘atini yangi-yangi so‘zlar bilan boyitadi, ularda bog‘lanishli nutq malakalarini rivojlantiradi.

“Siz shoirsiz”.

O‘qituvchi tomonidan butun guruhgaga ikki misra she’r beriladi va o‘quvchi uni boshlashi yoki davom ettirishi lozim.

She’rni davom ettiring.

*Hovli sahnidagi suluv rayhonlar
Shamollar uyg‘onsa tebranar mayin.*

.....
Yoki she’rni boshlab bering.

.....
*Qurtga aylanarkan bir kun kapalak,
Senga nima kerak, ayt, nima kerak*

tarzida amalga oshiriladi. Topshiriqni bajarish davomida o‘quvchi misralardagi har bir so‘zning ma’nosini tushunishga va unda yuzaga chiqqan fikr yoki go‘yani davom ettirishga, to‘ldirishga, tadrijiy rivojlantirishga, qofiyadosh so‘zlarni topishga, yakuniy va qisqa xulosa chiqarishga (yoki chiqarilgan(cheklangan) xulosani mazmuniy isbotini ifodalashga) harakat qiladi. O‘quvchi o‘zini shoirlardek his qiladi, uning o‘rnida bo‘lganda bu misralarga qanday so‘zlardan jilo berishi va yangicha ma’no-mazmun kashf etishi mumkinligini o‘ylaydi. Va bu har bir o‘quvchining individual uslubini yaratish, mustaqil fikrlash, go‘zal tasviriy vositalardan o‘rinli foydalanish, “eng nozik” ifoda yaratish, (tarqoq yoki betartib) fikrlarni “bir tizimga terish” ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Bu, albatta, o‘quvchida improvizatsiya(ijodiy fantaziya) hosil qilishga va ijodiy fikrlashga undaydi. Topshiriqning yakuniy qismida o‘qituvchi tomonidan she’rning asl varianti o‘qib beriladi va o‘quvchilarning yaratgan she’rlari asl variantga qanchalik yaqin yoki uzoqligi, shoir mantig‘iga mos kelish-kelmasligi, so‘zlardan o‘rinli foydalanganligi, qay birida ma’no ifodalash uslubi ixcham va ta’sirchan ekanligi solishtiriladi. Va niroyat sindfa kim shoir-u, kim esa shoir emasligi aniqlanadi. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchining so‘z boyligini, uning nutqini yuzaga chiqara olganligini, og‘zaki va yozma nutq rivojlanishining qay darajsida ekanligini aniqlab boradi. “O‘quvchining nutqini o‘sirish murakkab jarayon bo‘lib, unda barcha imkoniyatlar to‘laligicha ishga solinsa, fikrni og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatish osonlashadi. Natijada o‘quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo‘l ochiladi”

Xullas, ona tili o‘qitish jarayonida o‘quvchilar nutqini rivojlantirish, birinchi navbatda ularning so‘z boyligini oshirish, bog‘lanishli nutq hosil qilish va uni yuzaga chiqarishni taqozo etadi. Bunda



o‘g‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasini hosil qiluvchi, rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlarning ahamiyati kattadir. Zero, og‘zaki va yozma jihatdan to‘g‘ri va ravon nutq egasi – davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. G‘ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarova. A. Bobomurodova, N. Alavutdinova, V. Karimjonova. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent. 2012 .
2. R. A.Yo‘ldoshev, L. R. Mirjalolova. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv. –T.: 2009.
3. M. Yo‘ldosheva. Ona tili darslarining pedagogik asoslari va yangi pedagogik texnologiyalar// O‘zbek tili ta’limida pedagogik texnologiyalarning o‘rni: “O‘zbek tili” doimiy anjumani o‘n birinchi yig‘ini materiallari. – Toshkent: RTM, 2011.



TA'LIM TIZIMIDA O'QUV JARAYONIGA TADBIQ ETILISHI ZARUR BO'LGAN ISTIQBOLLI DASTURIY TIZIMLAR

O'rmonov G'olibjon Solijonovich
Farg'onan viloyati Yuridik texnikumi
O'quv bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lismizni modernizasiyalash jarayonida yuzaga kelgan ayrim muammolarni axborot texnologiyalari yordamida hal etish omillari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zları: yoshlar, dasturiy tizimlar, model dasturlar, modernizatsiya.

Jamiyatning barcha sohalariga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlarda kirib kelishi axborotga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Bu o'z navbatida axborot resurslaridan foydalanish borasida bir qator islohatlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Xususan, ta'lismizni modernizatsiyalashda axborot texnologiyalarining beqiyos imkoniyatlari munosib o'rin egallay boshladi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, axborot texnologiyalaridan jamiyatda o'rinli foydalanish maqsadga muvofiq, aks holda u samara emas balki, zarar yetkazishi muqarrar. Ta'lim tizimida o'quv jarayoniga tadbiq etilishi zarur bo'lgan dasturiy tizimlarning bir necha turlari yaratilgan:

1. Mustaqil ravishda o'z – o'zini o'qitish dasturlari. Uning tarkibiga multimedia, elektron o'quv qo'llanmalari, elektron amaliy va tajriba ishlari, mustaqil tayyorgarlik materiallari kiradi;

2. Bilim darajasini nazorat qilish dasturlari. Foydalanuvchi va talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini baholashi mumkin bo'lgan test materiallari, amaliy topshiriq va hisobotlar;

3. Pedagog-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot va munosabatlarni shakllantiruvchi va ta'minlovchi dasturlar. Bunday munosabatlarni shakllanishida albatta, progressiv infrastrukturaning lokal va global axborot tarmog'idan va masofadan o'qitish texnologiyasidan foydalanish;

4. Model – dasturlari. O'rganilayotgan ob'ektning turli o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etish va ular ustida tajribalar o'tkazish;

5. Talabalar mutaxassis sifatida tayyorlanayotgan soha faoliyatini imitatsiya qiluvchi dasturlar (ekspert tizimlar, imitatsion modellar);

6. Axborot ma'lumotlar bazasi va tizimiga talabalarning erkin kirib ishlashini, hamda o'rganilayotgan ob'ekt ekspertlari xulosalari bilan muammosiz tanishishni ta'minlash dasturlari (elektron kutubxona katalogi, ma'lumotlar banki va bazasi, elektron pochta, e'lonlar taxtasi, telekonferensiya tizimi).

7. Soha yo'nalishlari bo'yicha talabalarning referatlari, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini, professor – o'qituvchilarining metodik materiallarini (elektron nashr, elektron o'quv qo'llanmalari, chop etish tizimi) tayyorlash dasturi. Keltirilgan va bajarilishi lozim bo'lgan dasturlarning deyarli ko'pchiligi o'quv rejalarini va moddiy - texnik ta'minot dasturlarida o'z aksini topgan. Lekin ko'zda tutilgan va o'quv jarayonini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni kompleks usulda amalda tadbiq etilishi taqozo etiladi. Aks holda ko'zlangan ijobjiy va samarali natijaga erishish muammo. Buning uchun o'quv yurti auditoriya va o'quv-metodik xonalarni, kutubxonasi va tajriba ish joylarini lokal va global tarmoqqa ulash zarur. Shuningdek, talabalarning bilim olishlari uchun har bir soha yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi yaratilib, unga talabalarning erkin murojaatini ta'minlash lozim. Ma'lumotlar bazasiga murojaat etish orqali ixtiyoriy vaqtida o'quv jarayoniga oid ma'lumotni olish va ularni qayta ishslash mumkin.

Jumladan:

- guruh ro'yxati, har bir talaba haqida bataysil ma'lumot;
- soha yo'nalishi bo'yicha o'qitilayotgan fanlar ro'yxati;
- o'qituvchilarining yuklamalari taqsimoti;
- talabalarning fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari, eng yaxshi va sust o'zlashtiruvchi guruh, o'rtacha fanni o'zlashtirish bali va hokazo.

Prezidentimiz yoshlarni, ayniqsa yosh mutaxassislarni ish bilan to'liq ta'minlashni bugungi kunning dolzarb masalalari qatoriga kiritib, ushbu holatga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Shuning uchun ham har bir o'quv yurti o'z dargohini bitirgan mutaxassislarni ish bilan joylarda ta'minlanganligi haqidagi ma'lumotni yig'ish va tahlil etish asosida ta'lismizni takomillashtirishga o'z fikr



mulohazalarini bildirish ishlarini olib bormoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Topildiyev V. R. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari. – T.: 2015
2. Barakayev M. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. Metodik qo’llanma.



KONSTITUTSIYAGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISHNING AHAMIYATI

Otaboyeva Durdona Abduvahobovna
Farg‘ona viloyati Quvasoy shahri 2-umumta’lim
maktabi Huquq va Tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritilgan moddalari xususida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlari: Konstitutsiya, o‘zgartirish, konstitutsiya barqarorligi.

Jamiyat rivoji, barqarorligi konstitutsiyaga, uning barqarorligiga bog‘liq. Konstitutsiya, avval qayd qilganimizdek, eng muhim va asos hisoblanuvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlar boshqa munosabatlarga nisbatan barqaror, uzoq yashovchi, tez-tez o‘zgarishga muhtoj bo‘lmasa munosabatlar hisoblanadi. Shuning uchun ham konstitutsiyalar boshqa qonunlarga nisbatan kam o‘zgarishlarga uchraydigan qonundir.

Lekin, hayot doimo o‘zgarishga, ilgari yurishga moyil ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, ijtimoiy munosabatlar ham o‘zgaradi, ularni yangicha tartibga solish zarurati, turli davrdagi sharoitning xilma-xilligi konstitutsiyaga ham o‘zgartirish kiritish zaruratini vujudga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar 15-marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan: 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 77-moddasi 1-qismidagi “150 nafar deputatdan” degan so‘zlar “deputatlardan” degan so‘z bilan almashtirildi;

2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko‘ra hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonuniga muvofiq, Konstitutsianing XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilgan;

2007-yil 11-apreldagi Qonun bilan Konstitutsianing 89-moddasiga, 93- moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan;

2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 77-moddasi birinchi qismiga o‘zgartish kiritilgan;

2011-yil 18-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyasining 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 90-moddasi ikkinchi qismiga tuzatish kiritilgan;

2014-yil 16-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

-yil 6-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

2017-yil 31-mayda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 80, 93, 108 va 109-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

2017-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 99 va 102-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

2018-yil 15-oktabrda qabul qilingan Qonun bilan 105-moddaning birinchi qismidagi “ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan so‘zlar “raisni (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirilgan;

2019-yil 18-fevralda qabul qilingan Qonun bilan 80 va 93-moddalardagi “Milliy” degan so‘z “Davlat” degan so‘z bilan almashtirilgan;

2019-yil 5-martda qabul qilingan Qonunga asosan 79, 93 va 98-moddalarga o‘zgartirishlar kiritilgan;

2019-yil 4-sentabrda qabul qilingan Qonunga asosan saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek: 2021-yil 8-fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. O‘zgartirishga ko‘ra, O‘zbekistonda sud tizimi quyidagilardan iboratligi belgilandi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi; harbiy sudlari va boshqalar.

O‘zbekistonning rivojlanishi, unda olib borilayotgan islohotlar, albatta, ijtimoiy munosabatlarning



o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, 4-5-son, 60-modda
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to‘plami. — T.: 2007



FIZIKA FANINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA
ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.

Fayziyeva Xolida Asadovna

Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika
fakulteti Fizika kafedrasи o'qituvchisi.
fayzievхolida7@gmail.com, tel:(90) 718-34-02.

Raximova Ozoda Rizo qizi

Buxoro Davlat Universiteti Fizika-matematika
fakulteti Fizika kafedrasи 1-4 FIZ-18 guruh talabasi.
ozodaraximova454@gmail.com, tel:(93) 688-84-18.

Annotatsiya: Fizika fanini o'qitish jarayonida faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ma'lumotlar hajmi miqdoriy o'lchamga keltiriladi. Buning uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llab, umumta'lim maktablarida fizika fanidan darslarning sifatini oshirish, o'quvchilarni darsga qiziqtirish, ijodiy izlanish va mustaqil ishslash hamda o'zaro hamkorlikda ishslash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari keltirilgan

Kalit so'zlar: Yangi pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, axborot vositalari, interfaol, noan'anaviy dars, ko'rgazma qurollari.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach Respublika ta'lim sohasida tub o'zgarishlar sodir bo'lди va bu sohada yangidan-yangi islohotlar olib borilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim o'quv fanlari dasturlari, o'quv adabiyotlari butunlay yangidan qayta qarab chiqildi va kerakli o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan fizikani o'qitish uslubida ham qator tajribalar to'plandi. Biroq bu sohada hal qilinishi kerak bo'lган muammolarimiz ham yo'q emas. Buni oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini topshirish natijalaridan aniqlash mumkin.

Bugungi kun fizika o'qituvchisi oldida turgan dolzarb muammolardan biri ta'limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalash va uni o'qitish amaliyotida qo'llashdir. Fizika o'qituvchisi o'quvchilarga fizika fanidan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishilsin. O'qituvchi o'tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o'tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo'lishi kerak.

Hozirgi paytda fizika fanini oqitishga yangi pedagogik texnologiya kirib keldi. Fizika fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish samarali natijalar bermoqda. «Pedagogik texnologiya bu — ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash. Yaratish va qo'llashning tizimli metodidir» deb ta'riflanadi.

O'quvchilarda yetarli darajada bilim va ko'nikmalar shakllanishi uchun ular tegishli fizik hodisa va qonuniyatlar bo'yicha o'z mustaqil fikrlarini bildirishlari, o'qituvchi yoki boshqa o'quvchilar bilan fikr almashishlari zarur bo'ladi. Darsda o'rganiladigan mavzuning mazmunini e'tiborga olgan holda o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishchlari, o'zaro suhabatlar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o'yinlar, o'z-o'zini baholash, mustaqil ravishda masalalarni yecha olishlarini yo'lga qo'yishdan iboratdir. Mamlakatimiz umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda ta'limning zamonaviy texnologiyalari-interfaol metodlar qo'llanilmoqda. Jumladan, fizika darslarida yangi pedagogik texnologiyaning elementlaridan biri “Zinama-zina” metodidan foydalanish mumkin.

Fizika fanini o'qitishda “Zinama-zina” metodini qo'llash.

“Zinama-zina” metodi talabalarda o'rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ushbu metod talabalarda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o'zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko'rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metoddan foydalanish tartibi quyidagicha:

- 1) o'rganiladigan mavzu muayyan qismlarga ajratilib, alohida qog'ozlarda ifodalananadi;
- 2) talabalar ham matnga mos kichik guruhlarga ajratiladilar;
- 3) har bir guruhga muayyan qismdagи matn taqdim etiladi;
- 4) guruhlar o'zlariga berilgan qism matni bilan tanishib, uning mohiyatini belgilangan vaqt



ichida markerlar yordamida rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar shaklida ifoda etadilar;

5) belgilangan vaqt tugagach, guruhning bir nafar a’zosi o’zlari bajargan ish bilan jamoani tanishtiradi;

6) barcha guruhlarning ishlari tinglangach, jamoa tomonidan o’rganilgan mavzuning umumiy obrazi kichik mavzular mohiyatini yorituvchi rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida mantiqiy ketma – ketlikda yozuv taxtasida zinama – zina ko’rinishida joylashtiriladi;

7) o’qituvchi guruhlar tomonidan taqdim etilgan ishlarga izoh berib, zarur o’rinlarga o’zgartirishlar kiritadi;

8) guruhlarning ishlari ularning mazmuni, sifati va dizayniga ko’ra baholanadi (baholash jarayoni rangli kartochkalar vositasida amalga oshiriladi, ya’ni, talabalar o’zlari sifatli deb topgan ishni rangli kartochkalar yordamida belgilaydilar (ish ustiga kartochka yopishtiriladi), eng ko’p kartochkaga ega ishga yuqori ball beriladi).

Metodni qo’llashda talabalar quyidagi shartlarga amal qiladilar:

1) kichik mavzular bo‘yicha imkonli boricha ma’lumotlarni to‘la bayon eta olishlari lozim;

2) kichik guruhlarning ishlariga baho beradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, zamонавиу texnologiyalarni qo’llab, o’quvchilarni izlanuvchanlikka, ijodiy fikryuritishga, ish natijalarini tahlil qilishga, bilim olishlarini faollashishiga, o’qitishning mazmunini differensiallashuviga, bilimlarini modellashga va mustaqillikga o’rgatadi, turli o’quv vositalaridan kompleks foydalanishga ko’niktiradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. A.A. Rasulev, M.M. Haydarov “ O’qitishning interfaol metodlari ” o’quv- uslubiy qo’llanma, T.2015.

2. P. Habibullayev, A. Boydedayev, A. Bahromov, K. Suyarov, J. Usarov, M. Yo’ldosheva “Fizika” 9-sinf darslik. Toshkent-2019.



TEACHING TECHNICAL SUBJECTS THROUGH ENGLISH.

Rashidova M.X., Namozova D.B.

Teachers of the Department of Languages
University of Public Safety of the
Republic of Uzbekistan

Abstract: This article is devoted to teaching technical subjects in English. Technical subjects are considered very important at military educational establishments. In modern world it is impossible to survive without English language. Its importance is distinctly reflected at the military sphere. The article suggests on what should be done in order to improve cadets' and officers level of English as well as advantages of having a good command of English.

Keywords: technical subjects, advantages, English language, cadets and officers, level of English.

Аннотация: Ушбу мақолада техник фанларни инглиз тилида ўқитишнинг ижобий томонлари ёритиб берилиган. Техник фанлар ҳарбий олий ўқув юртларида мухим аҳамияга эга. Замонавий оламни инглиз тилисиз тасаввур этиш қишин ва ҳарбий соҳада ҳам инглиз тили мухим ҳисобланади. Мақолада курсантлар ва офицерларнинг инглиз тилини билиш даражасини кўтариш йўллари ва тил билиш афзалликлари борасида тавсиялар ҳам берилиган.

Калит сўзлар: техник фанлар, афзалликлар, инглиз тили, курсантлар ва офицерлар, инглиз тилини билиш даражалари.

Communicating in English may be difficult for learners owing to their habit of speaking in their mother tongue. Technical subject as a whole causes difficulties in understanding even in cadets' native language. Educational system in Uzbekistan does not apply technical subjects to be taught in English. At schools, lyceums and collages subjects are taught in Uzbek or Russian. English is taught as a separate subject mainly focusing on teaching general English with no bias towards specific subjects. 80 % of higher educational institutions do not use English as the main language to deliver their main disciplines. Only 20% of national institutes and universities teach their main disciplines through English. As for the technical subjects, they are taught in English only in Tashkent University of Information Technologies. What comes to the military higher educational establishments technical subjects are taught in the native language or Russian. The main reasons for this are as follows:

- The level of cadets English does not allow the technical subjects to be taught in English;
- There are no qualified specialists with the appropriate level of English;
- The administration of the military educational establishment does not require the teachers to teach technical subjects in English.

With the advent of English language into our lives the necessity to have a good command of English is very important. The relations with other countries are developing day by day. Most of the military negotiations and cooperation is conducted in English language be it an eastern country or western. English is becoming the language of military intercommunication.

Relations in military sphere with the countries like the USA, Great Britain and China are being tightened and the need for the military that have good level of English is rising dramatically. In the prospective future cadets and officers of the military educational institutions will have the opportunity to study and exchange their combat and technical training qualifications in the foreign countries. This is why the knowledge of technical terminology in English is of great importance for them. Knowledge of technical subjects in English helps to become highly qualified military men who will implement their knowledge for the betterment of the spheres they work in.

In order to improve the level of cadets and officers English, it is suggested to introduce teaching of technical subjects in English. As the military daily routine is very restricted cadets and officers don't have enough time to study and work on improving their level of English individually. It is desirable that some of the topics of the whole technical course to be taught in English. Because accepting whole the course in English causes difficulties for the learners who are not used to have their subjects in other than their native language. It is a reasonable suggestion to introduce teaching of technical subjects gradually in English language.

Teaching technical subjects in English is also of an advantage for the teachers. The decree of



the Cabinet of Ministers by September 29, 1994 “On paying bonuses to the teachers of foreign languages and teachers who deliver their subjects in foreign languages” guarantees to give extra 25% to 45% payment to their monthly salary.

References:

1. Agnihotri, R.K. and Khanna, A.L. (1998). English language teaching in India: Issues and Innovations. New Delhi: Atlantic Publisher.
2. Bloomfield, L. (1914). An introduction to the study of language, Benjamin, Amsterdam, The Netherlands .
3. Noam, C. (1975). Reflections of language. Pantheon Book Publishers, New York, USA.
4. Radhika, V. (2014). Interference of mother tongue in learning English as second language.



TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA EGMA EGRA DASTURIDAN FOYDALANISH

Umarova Muhayyo Isroilovna

Buxoro viloyati Peshku tumani

5-umumiyy o'rta ta'lif maktabining
boshlang'ich sinf oqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro baholash dasturi o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lif tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarini qiyoslashga doir ma'lumotlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'qish (EGRA) va matematika (EGMA), xalqaro baholash dasturi, milliy ta'lif tizimi, o'qish savodxonligi.

Bugungi kunda ta'lif tizimi barcha sohalar qatori ta'lif sohasi ham shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, ta'limning barcha jabhalari tubdan isloh etib borilmoqda. Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lif va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Chunonchi, ta'lif muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lif muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan.

Hozirda Xalq ta'lifi vazirligi xalqaro tajriba va tadqiqotlar asosida bu kabi tizimlarni joriy etish ustida ishlamoqda. Ilk bora xalqaro tizim asosida o'quvchilar bilimi baholanyapti. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston natijalarini boshqa davlat ma'lumotlari bilan taqqoslash va ularni hal etishning eng yaxshi usullarini topish imkonini beradi. Bugunga kunga kelib ta'lif muassasalarida o'qitish jarayonida hamda ularni Xalqaro ta'lif standartlari va talablari asosida o'qitishga ham ham katta e'tibor berilmoqda. o'quvchilarining o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Baholashning muhimligini ta'kidlab, AQSHning O'zbekistondagi elchisi Daniel Rozenblyum shunday dedi: «Biz ta'limga sarmoya kiritishni har bir mamlakat bajara oladigan eng muhim amal deb hisoblaymiz. Yosh avlodga investitsiya kiritish kelajakka investitsiya kiritish demakdir. Biz Xalq ta'lifi vazirligi bilan birgalikda amalga oshirayotgan ushbu loyiha butun O'zbekiston bo'ylab 3- va 5-sinf o'quvchilarining o'qish va matematika ko'nikmalarini baholashga yordam beradi. Baholash ushbu fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu fanlarni o'qitishga to'g'ri investitsiya kiritish imkonini beradi».

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vaziri o'rinosi Rustam Karimjonov shunday dedi: «Bizning yuksak vazifamiz – bolalarni muvaffaqiyatga olib kelish, maqsadimiz – ularni baxtli ko'rish. Ushbu loyiha boshlang'ich sinflarda yuqori sifatli ta'lifni tahminlash orqali bu yuksak vazifamizni ilgari surish yo'lida qo'yilgan muhim qadamdir».

Bugungi kunga qadar USAID EGRA va EGMA baholash tadqiqotini 40 dan ortiq mamlakatda o'tkazib, to'plangan mahlumotlar ushbu mamlakatlarga o'z o'quvchilarining o'qish va matematika bo'yicha asosiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam bergan. Mazkur tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini yaxshilash hamda ta'lif jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo'llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lif va jamiyat hayotida munosib ishtiroy etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarining dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmiy kitoblar) yoki o'quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.
2. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (Matematika fani o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019.
3. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholas (Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.Toshkent – 2019.



BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISH OMILLARI
XUSUSIDA

Akramova Gulnozxon Xolmatovna

Farg'on'a viloyati Dang'ara tumani
5-umumiy o'rta ta'lif maktabi
boslang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning nutqini o'stirish va lug'atini boyitishda ko'nikmalarni shakllantirish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: til, nutq o'stirish, lug'at boyligi, dunyoqarash, so'z ma'nosi

Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir. Hadisi shariflarda "Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir" deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og'ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

Tilning lug'at boyligini yetarli darajada bilmasdan turib madaniy nutq tuzish mumkin emas. So'zlarning semantik strukturasi, undagi taraqqiyot, leksik sistemadagi so'zlarning bir-biriga munosabati kabi masalalardan boxabar bo'lmasdan turib, tilning behad boy so'z xazinasidan konkret nutq uchun eng keraklisini tanlash mushkul.

Boshlang'ich ta'larning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish quyidagi uch yo'nalishda amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan:

- so'z ustida ishslash;
- so'z birikmasi va gap ustida ishslash;
- bog'lanishli nutq ustida ishslash orqali

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi»¹.

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalanadi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali

¹ И в а н о в П. И. Умумий психология. –Т.: «Ўқитувчи», 1997. 306 - бет



yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. SHe'r, maqolalarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, darak gap, so'roq gap, undov gap singari juda ko'p yangi atamalarни bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarini shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi.- Samarqand, 1992.
2. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, «O'zbekiston» 1992.
3. Иванов П. И. Умумий психология. –Т.: «Ўқитувчи», 1997. 306 – бет.



**AMERIKA VA G'ARB MAMLAKATLARIDAGI O'QUVCHILARNING SINF
PARTALARIDA YOLG'IZ O'TIRISHLARINING TA'LIM SIFATIGA BO'LGAN
TA'SIRI**

Mahmud Yo'ldoshev

Jizzah viloyati, Yangiobod tumani
2-sonli umumta'l'm maktabi direktori
+998 90 180 19 72

Xolmatov Islomjon G'ułom o'gli

Guliston davlat universiteti 4 kurs talabasi
+99893 324 77 73
Islomxolmatov9@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Amerika va G'arb mamlakatlari o'quvchilarining sinf partalarida yolg'iz o'tirishlarining sabablari, bundan ko'zlangan maqsadlar va erishilgan yutuqlar haqida so'z yurutilgan.

Kalit so'zlar: Amerika, Evropa, sinf xonalari, yakka o'tirish, samaradorlik, Pyotr Korotkov

Xorijiy kino muxlislari boshqa mamlakatlarda maktab sinflari qanday bo'lishini bir necha bor ko'rgan bo'lishi mumkin. Sizning e'tiboringizni tortadigan birinchi narsa – o'quvchilarni sinf partalarida yolg'iz o'tirishlari. Rus mакtablarida qo'shnilar bilan muayyan vazifalarni hal qilish bo'yicha umumiyl "muhokama" o'tkazilsa, g'arb mamlakatlarida o'quvchilar topshiriqlarni olish va ularni mustaqil bajarishga odatlanganlar. Qizig'i shundaki, individual stollar nafaqat Amerika mакtablarida, balki Evropada ham mashhur. U yerda ikki kishiga mo'ljallangan o'qituvchilar partasi yevropalik o'quvchilarni faqat hayratga solishi mumkin.

Buning sababi shundaki, psixologlar ko'p holatlarda bolalar mакtabda shaxsiy maydoni kamligi yoki umuman yoqligi tufayli stressli holatda yurishadi degan xulosaga kelishgan. Sinf partalarida yakka o'tirish esa asabiylikni kamaytiradi, shuningdek, kognitiv faoliyat bilan yanada samarali shug'ullanish imkonini beradi.

Shunday qilib, bitta stol va joy ma'lum bir bolaga tegishli ekanligini va boshqalar uchun daxlsiz joy ekanligini his qilishi juda muhim. Bu shaxsiy chegaralarni saqlashga, shaxsiy fikrni kamayishi ehtimolini kamaytiradi va o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb qiladi.

19-asrning oxirigacha Rossiyada ham bolalar sinf partalarida yolg'iz o'tirishgan, keyinchalik Pyotr Korotkovning say-harakatlari tufayli ikki kishilik o'tirish uchun stol ixtiro qilingan. Ma'lumki, bundan oldin barcha talabalar Fyodor Erisman rejasiga ko'ra ishlab chiqilgan kichik partalarda birin-ketin joylashgan va Korotkovning o'zi bunday partada o'qigan.

U inqilobchilar otryadiga qo'shilib, Ural mакtablaridan birida o'qituvchi lavozimini egallaydi. O'sha paytlarda o'quvchilar uchun mакtab faoliyati qashshoqlik va tor sharoitida edi. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarning unumli o'rganishiga yordam beradigan yangi stollarni loyihalasi ustida ish boshladi. Keyin u ikki kishilik sinf partasi ihtirosi bilan juda tor xonalar va darsliklar etishmasligi bilan bog'liq muammolarni hal qildi, chunki endi bitta kitobdan ikki kishi o'qishi mumkin edi.

O'sha yillarda bunday inqilobiy chora zarur edi, ammo bu zamonaviy voqelikda dolzarbmi? Ko'rinish turibdiki, bunday o'tirish tartibi tufayli ikki kishilik partalarda o'tiriladigan mакtab o'quvchilari boshqalarga nisbatan bag'rikenglik, kollektivizm va birdamlik tamoyillariga o'rganishadi, ammo shu bilan birga ular individuallik tuyg'usini va shaxsiy erkinlik hissini hurmat qilish imkoniyatini yo'qotishgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- Manba: <https://travelask.ru/blog/posts/32501-pochemu-v-ssha-shkolniki-sidyat-za-partoy-po-odnomu-a-u-nas>
- Manba: <https://travelask.ru/blog/posts/32501-pochemu-v-ssha-shkolniki-sidyat-za-partoy-po-odnomu-a-u-nas>
- Manba: <https://travelask.ru/blog/posts/32501-pochemu-v-ssha-shkolniki-sidyat-za-partoy-po-odnomu-a-u-nas>



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN GENDER
XUSUSIYATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH**

Azimjonova Rushana Rashid qizi

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti

Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo’nalishi

2-kurs magistri Navoiy viloyati Navbahor tumani

4сонли”Qaldirg’och”DMTT uslubchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo’lgan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda uchraydigan gender xususiyatlar va ularni bartaraf etish usullari haqida.

Kalit so’zlar: Maktabgacha ta’lim, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar, tarbiyachi, genderlik, ferminizatsiyalash, muhit, temperament, jins, shaxs, audiovizual, axborot, vizual.

Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko’nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ayniqsa maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatlimaktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, Xuddi shuningdek, yaqin yillarda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “*Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risida*”gi 802 qarorining asosiy maqsad va vazifalaridan etib: -maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog’lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.

Shu jumladan, *O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Tizimida Gender Tenglik borasida 2020-yilda olib borilgan ishlar haqida to’xtaladigan bo’lsak, Gender tenglikni ta’minlash* masalasi dunyo bo’ylab muhim ahamiyatga ega bo’lgan bir davrda O’zbekistonda ham bu masala davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligi va bu mamlakatimizning inson huquqlari asosidagi ilg’or qadamidan nishonadir. Shuni aytib o’tish joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning xulq-atvori, ovoz tembri, va xatti-harakatlarida gender xususiyatlari ham tafovut qilinadi.

Shuningdek, joriy yilning fevral oyida Respublika yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “**Zumradoylar davrası**” to’garagi doirasida, syujetli-rolli spektakllar va boshqa sahnalashtirilgan chiqishlarni tashkil etish maqsadida, 50dan ziyod ssenariylar yaratildi. Ushbu ssenariylar milliy qadriyatlarga boy, urf-odatlarimiz, ota-onasi, farzandlar, qiz bola va o’g’il bola o’rtasidagi munosabatlarni, gender tenglikni maktabgacha yoshdagagi bolalar ongida shakllantirishga qaratilgan vaziyatlarni o’z ichiga qamrab oladi. Maktabgacha ta’lim vazirligi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan “**Maktabgacha at’lim tashkilotlarida gender tenglikni shakllantirish**” nomli uslubiy tavsiyanoma Muvofiqlashtirish kengashi tomonidan tasdiqlanib, ta’lim-tarbiya jarayoniga yo’naltirilgan.

Xuddi shuningdek maktabgach ata’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o’rtasida ham gender barqarorlik, nutqning gender xususiyatlari, o’g’il va qiz bolalar orasida gender tafovutlar uchraydi. Genderlikning bola hayotidagi o’rnii ham beqiyosdir. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda gender ta’lim –bu bolalarda haqiqiy erkaklar va ayollar haqidagi g’oyalarni shakllantirish va bu insonning normal va samarali ijtimoiylashuvi uchun zarurdir. Pedagoglar va ota-onalarning ta’siri ostida maktabgacha yoshdagagi bola jinsiy rolni yoki odamning xatti-harakatlarining gender modelini o’rganishi kerak, shunda u ayol yoki erkak sifatida aniqlanadi.

Sizning o’g’lingiz yoki qizingiz ulg’ayishi va haqiqiy erkak va ayol, baxtgli baxtli bo’lishi uchun siz ularni bolalikdan gender tamoyiliga ko’ra tarbiyalashni boshlashningiz kerak. Shuni doimo yodda tutish kerakki, o’g’il va qizlar go’daklikdan boshlab turli xil eshitish, ko’rish, gapirish va his qilishdir. Qizlar ko’pincha itoatkor, o’g’il bolalar esa ajralib turishni xohlashadi; qizlar samaraliroq, o’g’il bolalar esa ma’lumotni asosan ko’rish, qizlar esa quloq orqali qabul qiladilar. Siz farqlarni cheksiz sanashda davom etishingiz mumkin.

Bolalar bog’chasida qo’llaniladigan o’qitish strategiyasi, bolalar bilan ishlash shakllari va usullari ko’pincha qizlar uchun mo’ljallangan. Shu bilan birga, qizlar va o’g’il bolalar ko’pincha ayollar tomonidan tarbiyalanadi uyda-onasi yoki buvi, va bolalar bog’chasida-ayol tarbiyachi. Natijada ko’plab o’g’il bolalar uchun jinsga chidamlilik erkaklar ishtiropkisiz shakllanadi. Ayollar



esa, olimlarning fikriga ko’ra,o’g’il bolalarni to’g’ri tarbiyalay olmaydilar,faqat bitta oddiy sababga ko’ra:ular boshqa turdagи miya va boshqa turdagи fikrlashga ega.Bundan tashqari,ayol o’qituvhci tabiiyki, maktabgacha yoshdagi o’g’il bolalar kattalar bilan va bolalar bilan muloqot qilishda duch keladigan tajribalarning bolalik tajribasiga ega emas.Shuning uchun,o’g’il bolalar bilan muloqot qilishda,ko’plab o’qituvchilar, agar bu o’g’il bo’lsa,demak yana, uiroda,kuch chidamlilik timsoli degan fikrga amal qiladi.Natijada,umuman jasoratli emas,balki qo’rqinchli jismonan zaif va juda zaif o’g’il bolalar muntazam ravishda o’qituvchilarning travmatik ta’siriga duchor bo’lishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak,tarbiya jarayoni qanchalik to’g’ri tashkillashtirilgan bo’lsa,maskanda tarbiyalanadigan bolalar tarbiyasida ham xulq-atvorida ham kelishmovchiiklar va tartibsiz harakatlar psixologik kaslliklar yuzaga kelmaydi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. F.R. Kodirova. Didakticheskie igrq dlya obucheniya detey russkomu yazqku. Tashkent, «O’qituvchi», 1992.
2. F.R. Qodirova. «Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o‘zbekcha so‘zlashishga o‘rgatish»(metodik qo’llanma). Toshkent,«O’qituvchi»,1997Eremeeva V.D. O’g’ilbolalarvaqizlar. Turlixilyo’llarbilano’rgating, turiyo’llarbilanseving. Samara. O’quvadabiyoti, 2005 yil.
3. Kurbatova S. Kitobo’g’ilbolalaruchun, kitobqizlaruchun. “Maktabgachata’lim” 2012 yil 10-sin.



MASOFAVIY O'QITISH KURSLARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA MOOC TIZIMINING AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI

Bekchanova Feruza Xadjinazarovna
UrDU akademik litseyi aniq fanlar kafedrasи
informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi internet orqali masofadan o'qish imkoniyatini kengaytirib yubordi. Masofadan turib onlayn o'qish ta'limg olishning innovatsion va qiziqarli usuli hisoblanadi. Ushbu maqolada MOOC masofaviy ta'limg tizimida o'qitish metodikasi, unda masofaviy ta'limg jarayonini tashkil etish va uning asosiy afzallikkleri to'g'risida to'xtalib o'tilgan..

Kalit so'zlar: Onlayn ta'limg, MOOC, onlayn ta'limg aralash shakli, erkin dars jadvali , ta'limg jamoasi, real vaqt rejimi.

Onlayn ta'limg — Internet tarmog'idan foydalangan holda real vaqt rejimida bilim olishning yangi usuli. Hozirgi vaqtida onlayn bilim olish dunyodagi eng tez rivojlanayotgan ta'limg texnologiyalaridan biri hisoblanadi. 2000-yillarda ochiq internet kurslari paydo bo'lishi natijasida onlayn ta'limga o'tish jarayoni boshlandi. U orqali o'z davrining dunyoga mashhur, reytingi yuqori universitetlari tinglovchilarga o'z ma'ruzalaridan bepul foydalanish imkoniyatini taqdim etdi.

MOOC — onlayn ta'limg bozorini rivojlantirish hamda turli pedagogik va biznes vazifalarini hal etishga qaratilgan zamonaviy masofaviy ta'limg tizimi. MOOC (ingl. Massive Open Online Course) yoki OOOK Ommaviy Ochiq Onlayn Kurs) kengaytmasi to'rtta atamadan tarkib topgan:

Massive (ommaviy): geografjk o'midan qat'iy nazar, chegaralanmagan holda ko'p sonli bilim oluvchilarни ommaviy ravishda qamrab oladi.

Open (ochiq): barcha o'quvchilar uchun bepul va ochiq ta'limg. Ochiqlikning asosiy jihatlari — kurs uchun bepul ro'yxatdan o'tish, ro'yxatdan o'tganlar uchun cheklovsiz kontent, ta'limg natijalariga erishishning bepul imkoniyatlari.

Online (onlayn): masofaviy ta'limg onlayn aloqa vositalari yordamida olib boriladi va barcha materiallar elektron shaklda taqdim etiladi. Bu MOOCni tashkil etishning texnik xususiyatlarini ochib beradi, ya'ni kurs internet orqali uzatiladi, o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari bilan tarmoqning o'zaro ta'sirini ta'minlaydi.

Course (kurs): umumiy qoidalar, vaqt cheklovlarini va belgilangan maqsad asosida tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibidagi materiallar tizimlashtirilgan hamda tartibga solingan holda taqdim etiladi

MOOCning asosiy imkoniyatlari:

- ✓ o'quv materiallarini ta'limg oluvchiga optimal variantda taqdim etish;
- ✓ kursdan o'tish usullari, vaqt tanlashning moslashuvchanligi;
- ✓ o'qituvchining ishtirokisiz mustaqil ravishda kursdan kursga o'tish;
- ✓ kurs o'qituvchisi va kurs yaratuvchisi rollarining har xilligi;
- ✓ ta'limg jamoasini shakllantirish;
- ✓ ta'limg oluvchi reytingini shakllantirish turli elementlaridan foydalanish;
- ✓ baholashning turli usullari va teskari aloqa tizimidan foydalanish;
- ✓ rasmiy va maxsus ta'limg muassasalari doirasida kredit va reyting birliklari tizimini shakllantirish.

MOOCning afzallikkleri:

Bepul onlayn ta'limg. MOOC tarkibidagi “ochiq” atamasi bepul yoki shartli bepul degan ma'noni anglatadi. Qoidaga ko'ra, kursda o'qish va amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun mablag' talab etilmaydi. Agar mablag' talab qilinsa ham, MOOC kursining xarajatlari kunduzgi ta'limg xarajatlaridek ko'p bo'lmaydi.

Zamonaviy mutaxassisliklar. Hozirgi texnika asrida mehnat bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Onlayn rejimda tashkil etilgan kurslar mehnat bozorida kechayotgan o'zgarishlarni yashin tezligida ilg'ab olmoqda va aynan bugungi kun talabiga javob beruvchi mutaxassisni tayyorlash uchun o'z o'quv dasturlarini taqdim etmoqda.

Dunyoning eng yaxshi o'qituvchilar. Onlayn ta'limg dunyoning eng nufuzli universitetlarining yuqori malakali va tajribali o'qituvchilarini tomonidan olib boriladi. Masofaviy kursning har bir o'quvchisi kurs o'qituvchisi bilan shaxsan onlayn suhbatlashish imkoniyatiga ega.



Materiallarni tizimli taqdim etish. Zamonaviy texnika vositalari yordamida materiallar optimallashtiriladi hamda oson va qulay shaklda taqdim etiladi. Qisqa videolar uzun ma’ruzalarga nisbatan o‘quvchilar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilganligi sababli, barcha mavzular kichik videolardan tashkil topgan. **Onlayn ta’limning aralash shakli.** Masofadan o‘qitish jarayoni xilma-xil materiallardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. MOOC masofaviy o‘qitish kurslari faqatgina videolar bilan cheklanib qolmaydi, balki ulardan turli manbalarga yo‘naltiruvchi qo‘srimcha murojaatlar: matnli hujjatlar, audiofayllar, ijtimoiy tarmoqlar va forumlardagi muhokamalar ham joy olgan.

Erkin dars jadvali. Har bir kurs vaqt bilan cheklangan bo‘lib, o‘quvchi o‘ziga qulay dars jadvalini tuzib olishi mumkin. Videodarslarni keyinroq ko‘rish yoki tushunish qiyin bo‘lgan darslarni qayta ko‘rib chiqish mumkin. Uy vazifasi ham ixtiyoriy vaqt oralig‘ida va ixtiyoriy sur’atda bajarilishi mumkin.

Interfaollik. Juda ko‘p onlayn kurslarda o‘quvchilar bilan teskari aloqa o‘rnatishning imkonи bo‘lmaydi. MOOC platformalari kurs o‘qituvchisi hamda boshqa o‘quvchilar bilan aloqa qilish uchun ko‘plab aloqa kanallarini taqdim etadi.

Foydali aloqalar. O‘quvchilar o‘z kurslarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga ham ega. Ular bilimlarini o‘rtoqlashibgina qolmay, bir-birlarini tekshiruvchi sifatida ham ishtirok etishlari mumkin. Odatda, masofaviy ta’lim kursining har bir o‘quvchisi bir necha kursdoshlari ishlarini tekshirishi lozim.

Tezkor teskari aloqa va baholash. Har bir o‘quvchi topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, olgan bilimlari qanday baholanganligini deyarli biladi va natija uni qanoatlantirmasa, uni qayta topshirish imkoniyatiga ega bo’ladi..

Bugungi texnika asrida faoliyat olib boradyotgan har bir pedagog-an’naviy va onlayn ta’lim jarayonini uyg‘unlikda olib borsa, o‘quvchilar, talabalar yuqori saviyadagi bilim, malaka va ko’nikmaga ega bo’la oladilar.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Евгений Заплетин. Фриланс на upwork. — М, 2019
2. <https://www.wikipedia.org> — erkin ensiklopediya
3. <https://www.moodle.org> — Moodle LMSning rasmiy manzili.



**IBN SINO, FITRAT, ABDULLA AVLONIY KABI OLIMLARIMIZ QOLDIRGAN
MEROΣ YORDAMIDA TALABALAR MA’NAVİYATINI RIVOJLANITIRISH.**

J.A.Karshiyev

Samarqand davlat chet tillar instituti

Telefon: +998933567009

karshiyevjaxongir1991@mail.ru

Annotatsiya. Ma'lumki, bugun dunyo ulkan tahdid ostida qolgan bir vaqtida xalqimiz xususan, yoshlарimizning ma'naviyatini shakllantirish zarur. Mazkur maqolada ma'naviyatimiz rivojlanishiga ulkan xissa qo'shgan namoyondalarimizdan Ibn Sino, Fitrat, Abdulla Avloniy singari olimlarimizning qarashlari yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, axloq, odob.

Xalq va millat dunyoqarashini shakllantirish, ta'lif-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, barkamol insonni tarbiyalashda ma'naviyat masalalari alohida o'rinn tutadi. Ta'lif muassasalarida talabalar ma'naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta'lif-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma'rifatga, ta'lif-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli yoshlarning ta'lif-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan.

Jahon madaniyatining buyuk namoyandalaridan biri Abu Ali ibn Sino ham salafi Forobiy, zamondoshi Beruniylar kabi ma'naviyat va ma'rifat, o'z davridagi ilmlarning holati va ularning insoniyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Uning fikricha, har qanday ilmda narsalarni bilish uning boshlanish tamoyillari va sabablarini, shuningdek, narsalarga xos tasodify va zaruriy belgilarni o'rganish orqali erishiladi. Har qanday bilim narsaning ichki sabablarini bilish yo'li bilan paydo bo'ladi. Bundan ko'rindiki, ilm faktlarni kuzatish, ularni o'rganish va sabablarini bilishga asoslanadi. Ilmning maqsadi kuzatish va tekshirish qurolini to'g'ri bilishdan iboratdir. Mana shunday qurol yordami bilangina o'rganilayotgan hodisalar haqida mukammal bilimga ega bo'lish mumkin. Sharq gumanizmining buyuk namoyandasasi sifatida Ibn Sino faqat ilm-fan va madaniyatgina inson uchun haqiqat eshiklarini ochish imkonini beradi, deb hisoblaydi.

Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan maxsus «Tadbir al-Manozil» asarida oilada ota-onaning vazifasi va burchiga, shuningdek, oila munosabatlariiga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onaning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarni ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etilgan. Uning tarbiyaviy qarashlarida ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turish, nutq odobi, so'z madaniyati, o'zaro muomala jarayoni kabi muhim amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik hamda samimiylilikda namuna bo'lmog'i kerakligi muhim o'rinn egallagan [1].

Ibn Sinoning e'tiborga molik fikrlaridan biri uning odamlarni, xususan yoshlarni fanni jiddiy o'rganish va muayyan sohada takomilga intilishga chaqirganligidir. Ibn Sinoning hisoblashicha, jasur kishilar ilmiy bilimlarni egallagan va ularidan xalq manfaati yo'lida foydalanadigan kishilardir. Bunday kishilarni u ideal, aql nurini taratuvchilar deb ataydi. O'zining “Ishorat va tanbihot” asarida shunday yozadi: “Ma'rifatlari inson jasurdir. U o'limdan qo'rmas, kamtarin va ko'ngli ochiq inson. U soxta do'stlik va birovlarni kamsitishdan yiroqdir. U qalbi buyuk inson bo'lib, kishilar o'rtasida bo'ladigan har qanday kamsitishlar unga taalluqli emas” [2].

Fitrat mazkur asarining ikkinchi qismida farzand tarbiyasi haqida yozadi. “Oiladagi eng og'ir vazifa bola tug'ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir... Bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so'z – “bola tarbiyasi” dan iborat birikmaga bog'liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlig jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib, e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq” deydi [3].

Abdulla Avloniy ham ta'lif-tarbiga oid ilg'or qarashlarni ilgari surgan. Uning ilmiy merosi boy bo'lib, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” kabi asarlarida “aqllining bolasi aqli, ahmoqning bolasi ahmoq” kabi aqidalarga qarshi chiqadi va tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Avloniy tarbiyani shunday tushuntiradi: “Tarbiya”, “pedago'giya”, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur... Bolani salomatni va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakni tuzatmak,



ヤクシ xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan asrab o'sdurmakdur”[4].

Uning fikricha, tarbiya bola tug'ilgan kundan boshlanadi va umrining oxiriga qadar davom etadi.

Tarbiya ikki bosqichdan – oila va maktab tarbiyasidan tashkil topadi. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va, aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu hol matabning ta'lim tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi.

Avloniy tarbiyaga oid qarashlarida tarbiyani uch asosiy ko'rinishga – badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasiga bo'ladi hamda ular o'rtasida uzviy birlilik bo'lishi zarurligini uqtiradi [5].

Xulosa. Hozirgi kunda, ya'ni jamiyat hayotining modernizatsiyalashish sharoitida jamiyatda ma'naviy sohada yoshlarmizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning kuch va salohiyatini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish, ma'naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g'oyalari asosida rivojlantirish muhim xisoblanar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaev M. N. Abu Ali ibn Sina — velikiy myslitelъ, uchyonyu entsiklopedist srednevekovogo Vostoka — M.: Sampo, 2002. —S. 212.
2. (Braginskiy I.S. Iz istorii tadzhikskoy narodnoy poezii. – Dushanbe, 1965. – B. 294) .
3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki –2000.B. 55.) - deydi.
4. (Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. –B. 12).
5. (O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1996. –B. 276).



**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV TAFAKKURNI
SHAKLLANTIRISHNING USUL VA YO‘LLARI**

Qambarova Nasiba Qambarovna

Navoiy shahar 11-AFCHO’IM

boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

NDPI 2-kurs magistranti

Telefon:+998(93)4334386 Nasiba_123@mail.ru

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirishning mazmun mohiyati ohib berilgan. Shuningdek, kreativ salohiyatni amalgalashirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: ta’lim, tarbiya, kreativ tafakkur, shaxs, diagnostika, korreksiya, motivatsiya, intellektual salohiyat.

KIRISH

Umumiy o‘rta ta’lim bolaning shakllanishida asosiy poydevor vazifasini o‘tab, yangi hayotga qadam qo‘yishda ilk tamal toshlarini qo‘yadi. Pedagog va psixologlar tadqiqotlаридан mal’umki, bola hayotdan oladigan ma’lumot va axborotning 70 % ini 8 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi, hamda shaxs bo‘lib shakllanishi, ruhiy, ma’naviy faoliyatining tarkib topishi aynan shu yoshda berilgan ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Shu sababli ham bolaning aynan kichik maktab yoshidanoq layoqat va qobiliyatlarini, ayniqsa kreativ tafakkurini anglab yetish, shakllanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolaning o‘zligini anglab yetishga hamda bu orqali jamiyat va millatning sog‘lom genofondini tarbiyalashga dasturulamal vazifasini o‘taydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bolalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini har jihatdan namoyon etish, milliy va umuminsoniy idealar va qadriyatlarning ustivorligini ta’minalash, shaxs, jamiyat va atrof muhitning o‘zaro munosabatlarida uyg‘unlikka erishuv bola va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatni yuqori darajaga olib chiqishga sabab bo‘ladi.

Bugungi kunda shaxslar o‘rtasidagi ijodiy jihatdan mavjud farqlar bilan bir qatorda ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatidagi shaxsnинг umumiy tafakkurlaridagi farqlarga katta e’tibor qaratish lozim. Bu ta’lim sohasidagi ko‘pgina masalalarni hal etish uchun muhim ahamiyatga egadir. Bunday masalalar jumlasiga: bolalarning fikrlashi va o‘qishi, ularning ta’limni keyinchalik esa, kasbiy va ijtimoiy sohasida rivojlanishini, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, imkoniyatlarini diagnostikasi, korreksiyasini kiritish mumkin.

Inson shaxsi va uning xarakteri, shu bilan birga tafakkur faoliyati va ijodiy imkoniyatlari bolalikning ilk yillaridanoq shakllanib boradi. Yosh avlodning kelajagidan umidvor bo‘lgan jamiyat bu jarayonga faol aralashib, inson shaxsini kamolga yetkazish borasidagi vazifalarga befarq qaramaydi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi bolalarining aqliy (jismoniy) imkoniyatlari ularning ta’lim-tarbiyasiga, intellektual salohiyat darajasiga hamda shaxslararo munosabatlariga, bola xarakterining shakllanishiga, guruhdagi ruhiy muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, bilish jarayoni rivojlanishi ulardagi ijodiy ko‘nikmalar, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga zamin yaratadi. Bundan kelib chiqadiki, bola shaxsini rivojlanishida aqliy imkoniyatlari erta aniqlash, mavjud imkoniyatlarni yuqori darajada rivojlanish, kreativ tafakkur va ko‘nikmlarini muntazam ravishda o‘stirib borish dolzarb muammolardan hisoblanadi

Bugungi kunda tilimizning chetdan kirib kelgan so‘zlar hisobiga boyishi natijasida , “yaraturvchanlik , ijodkorlik” so‘zları o‘rnida “Kreativlik, kreativ shaxs qibiliyatları, kreativ yondashuv” iboralarini ko‘p uchratmoqdamiz.

Xo‘sh kreativlik o‘zi qanday tushuncha? Kreativ (lot.creation-yaratish, vujudga keltirish) _- bu insonning noodatiy g‘oyalar, fikrlar bera olishi, muammolarni takrorlanmas orginal yechimini topishi, tafakkurning ananaviy shaklidan voz kecha olishga bo‘lgan qibiliyatidir.

Kreativ fikrlar tufayli biz yangi narsalar yaratamiz , ixtiolar qilamiz, ilmiy kashfiyotlarni amalgalashiramiz. Kreativ fikrlaydigan yoshlar jamiyatning taraqqiyotini belgilashdagi asosiy omil hisoblanadi.

Ijodkorlik aslida har bir o‘quvchida mavjud bo‘ladi. Biz o‘qituvchilardan va ota-onalardan talab qilinadigan narsa esa, o‘quvchilarining kreativligini erta aniqlash, rivojlanish va so‘nishiga



yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga quyidagi omillar yordam beradi:

- Mativatsiyaning o‘rtacha darajasining mavjudligi
- Shoshqaloqlikdan qochish uchun yetarli vaqt
- Past yoki o‘rta darajadagi mas’uliyat
- Fikri muhim bo‘lgan odamlar tomonidan natijalarga ijobiy munosabat
- Jamiyat bilan munosabatlardagi mustaqillik
- **Tajriba**

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda to‘sinqinlik qiluvchi omillar :


- Juda kuchsiz yoki aksincha juda yuqori mativatsiya
- **Vaqt yetishmasligi**
- Yuqori darajadagi mas’uliyat
- Fikri salmoqli va qimmatli bo‘lgan shaxslarning tanqidiy, norozi, noto‘g‘ri munosabati
- **Muvaffaqiyatsiz tajriba**
- Qobiliyatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi
- O‘z harakatlari va qarorlarida boshqa odamlardan farq qilishni istamaslik va qo‘rquv
- **Qutidan tashqari fikr yuritish** qobiliyatining asta-sekin kamayib ketishi

O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish yo‘llari:

- Ko‘proq bilim olishga undash
- O‘ziga nisbatan ishonchni rivojlantirish
- Tasavvurni rivojlantirish
- Dunyoqarashni kengaytirish
- Ijobiy fikr bildirish va fikrini himoya qilish
- Ijobiy o‘ylashga o‘rgatish, chunki muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, (natijada o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish) xatolar maqsadga erishishga xalaqit beradi, xato ham g‘alabaga olib boradigan qadamdir.
- Diqqatni hal qilinishi kerak bo‘lgan muammoga qaratish
- **Birga yarating!**
- Har qanday narsani hayol qilishga o‘rgating!
- Bolaga u so‘ragan hamma narsani erinmasdan tushuntiring!

Kreativ fikrlashni qo‘llab- quvvatlash yoki unga to’siq bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘quvchining atrof-muhitiga keladigan bo‘lsak ; sinfdagi shakllangan madaniyat, maktablarning va umuman olganda ta’lim tizimining ta’limga yondashuvi va umumiy ijtimoiy muhitning barchasi o‘quvchining ijtimoiy muhitini tashkil etadi. Bularning hammasi o‘quvchi kreativ fikrlashga bergen ahamiyatiga ta’sir o’tkazadi va kreativ fikrlash yo‘lida yo to’siq, yo madad bo‘lishi mumkin

O‘quvchilarning shaxs sifatida yoki guruh bo‘lib kreativ fikrlashini kuzatish va baholash uchun maktablar qulay joydir. Sinfdagagi ijodiy marralar va ilgarilash deb, ijodiy ifodaning shakllari (ya’ni, ichki dunyosi va kechinmalarini yozish, chizish, musiqa yoki boshqa san’at usullari orqali ifodalash) bilimni orttirish (ya’ni, guruh uchun yangi bilimni yaratish) yoki muammoni yechishga ijodiy yondashishga aytildi.





Ta’lim jarayonida kreativ fikrlashning ushbu turli yordamchi omillari o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy yordamchi omillar madaniy qadriyatlar ostida shakllanadi, bu esa, o‘z navbatda, o‘quvchining shaxsiy yordamchi omillari qanday taraqqiy etishiga ta’sir qiladi. Maktabda o‘quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta’limning yangi shakllari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bu ayniqsa ta’lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o‘quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o‘z fikrini ayta olishiga, salohiyatini oshishiga xizmat qiladi.





O’qituvchi o‘quvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o’rgatishi ,intelektual qobiliyatlarini aniqlashi, bu yo’lda turli xil metodlar, usul va vositalardan foydalanishi mumkin. Shaxsnинг intelektini aniqlashga yordam beradigan Veksler, Torrens va Raven test metodikalari mavjud bo’lib , quyida Raven test matodikasi haqida qisqacha to’xtalib o’tamiz.

Ravenning aql-idrok testi 60 ta jadval yoki 5 ta seriyadan iborat. Har bir seriyada - qiyinlashib borayotgan vazifalar. Vazifalar seriyadan seriyaga qiyinlashada. Mavzu bir-biriga bog’liq bo’lgan raqamlar bilan chizilgan rasmlar bilan taqdim etiladi. Bitta shakl yo‘q, ammo pastki qismida u 6-8 ta boshqa elementlar orasida joylashgan. Nomzod yoki ishchining vazifasi raqamning o’zida raqamlarni bir-biriga bog’laydigan naqshni o’rnatishdir.





So’rovnomada siz taklif qilingan variantlardan qidirayotgan narsangizning raqamini ko’rsatishingiz kerak. Vazifalarni hal qilishda uchta aqliy jarayon paydo bo’ladi: diqqat va diqqat; idrok va qabul qilish qobiliyati; fikrlash va tushunish.

1. Rang 5 yoshtan 11 yoshgacha bo’lgan bolalar uchun mo’ljallangan, ammo ba’zida u 65 yoshtan katta odamlar uchun ishlatalidi.

2. Oq va qora 14-16 yoshdagи o’spirinlarni, shuningdek 16 yoshtan 65 yoshgacha bo’lgan kattalarni baholash uchun juda mos keladi.



A-1



B-4



XULOSA

Kreativ fikrlashga, bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko‘r-ko‘rona yodlash o‘rniga tadqiqot va ixtironi qo‘llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin.

O‘qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o‘zлari ham o‘quvchilarga fikrlashda ko‘proq ijodiy yondashishga yordam bera olishi kerak va zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida PF - 4947. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami
2. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori 29.12.2016 y.
3. . Nishonova Z.T. Bolalalar psixodiagnostikasi T.; 1998
4. 4. G‘oziyev E. G. Tafakkur psixologiyasi. - T.; «O‘qituvchi» nashriyoti 1992
5. PISA tadqiqtolarida kreativ fikrlashni baholash doirasi nomli qo’llanma T.: 2020
6. Internet materiallari



СПОРТ – ЗАЛОГ ЗДОРОВЬЯ

Рахманова Дилдора Гуломалиевна

Старший преподаватель кафедры физической культуры

Баткенского государственного университета

Кызыл-Кийского гуманитарно-педагогического института

Аннотация: В этой статье рассматриваются вопросы регулярного занятия спортом, обеспечения здорового образа жизни, духовного, интеллектуального, физического и нравственного развития молодежи, создания адекватных условий для получения качественного образования.

Ключевые слова: спорт, физическая культура, здоровый образ жизни, качественное образование, спортивная инфраструктура.

Аннотация: Ушбу мақолада спорт билан мунтазам шуғулланиш, соғлом турмуш тарзини таъминлаш, ёшларни маънавий, интеллектуал, жисмоний ва ахлоқий жиҳатдан камол топтириш, сифатли таълим олишлари учун етарли шароит яратиш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: спорт, жисмоний тарбия, соғлом турмуш тарзи, сифатли таълим, спорт инфратузилмаси.

Annotation: This article discusses the issues of regular sports, ensuring a healthy lifestyle, spiritual, intellectual, physical and moral development of young people, creating adequate conditions for receiving a quality education.

Key words: sport, physical culture, healthy lifestyle, quality education, sports infrastructure.

В результате комплексных преобразований экономических, политических и культурных процессов в нашей стране проведена ряд работ в области физической культуры и спорта. Особое внимание будет уделено по укреплению здоровья населения, физическому воспитанию школьников и студентов, повышению квалификации талантливых спортсменов в соответствии с современными требованиями и международными стандартами, а также повышению трудовой квалификации и производительности труда государственных служащих и, самое главное, главный здоровый образ жизни. Потому что роль спорта велика для формирования здоровой среды в обществе.

Мы знаем, что спорт – залог здоровья. Поэтому сегодня спорт становится все популярнее. С каждым днем растет число наших соотечественников, ведущих здоровый образ жизни. Потому что, если ты будешь заниматься спортом, ты всегда будешь здоров. Организм человека, который занимается спортом, также устойчив к заболеваниям. Физическое воспитание и спорт всегда были неотъемлемой частью жизни общества. Абу Али ибн Сина известный среднеазиатский ученый, написал “Справочник по чистоте” в 1002-1011 гг. В этой книге соблюдение физической активности гарантирует, что люди будут здоровы и в хорошей физической форме. Именно поэтому каждый должен заниматься физкультурой и спортом.

Следует отметить, что развитие детского спорта является приоритетным направлением проводимой в нашей стране благородной работы по воспитанию всесторонне развитого поколения. Этой цели служит и то, что особое внимание уделяется повышению эффективности использования современных детских спортивных сооружений, построенных во всех регионах страны. Предпринимаются усилия по привлечению молодежи к занятиям спортом, формированию среди них здорового образа жизни, реализации талантов и потенциала наших юношей и девушек.

Не будет преувеличением, что сегодня работа по внедрению здорового образа жизни и развитию массового спорта в нашей стране вышла на новый, активный этап. В свою очередь, предпринимается ряд позитивных шагов по созданию благоприятных и необходимых условий для занятий населения массовыми видами спорта. В целях привлечения молодежи к занятиям спортом, ее поддержки правоохранительными органами ведется целенаправленная и адресная работа.

П.Ф.Лесгафт, основоположник теории физического воспитания, подчеркивает необходимость постепенного усложнения и разнообразия движений с учетом анатомо-физиологических и психологических особенностей детей при выборе упражнений. Он



говорит, что физическая зрелость работает только в сочетании с умственной, нравственной, эстетической зрелостью и трудовой активностью. Поэтому при проведении государственной политики, прежде всего, важно обеспечить здоровый образ жизни молодежи, ее духовное, интеллектуальное, физическое и нравственное развитие, качественное образование, создание и поддержку адекватных условий для проявления ими своих талантов. В частности, особый акцент был сделан на формировании стремления молодежи к здоровому образу жизни, а также создании условий для содержательной организации молодежного досуга и массового развития детско-юношеского спорта.

В системе образования определен ряд задач по привлечению молодежи к регулярным занятиям физической культурой и спортом, пропаганде здорового образа жизни в обществе, обеспечению эффективного использования физкультурно-оздоровительной и спортивной инфраструктуры. Обсуждены вопросы повышения эффективности принимаемых мер по дальнейшему совершенствованию отрасли и их дальнейшего совершенствования. Потому что каждый обязан заниматься спортом и вести здоровый образ жизни.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Нормуродов А.Н. Физическая культура. Т., Узбекистан. 1998 г.
2. Осокина Т.И. Физкультура в детском саду. М., 1976 г.
3. Кенеман А.В., Д.В.Хуслаева. Теория и методика физического воспитания дошкольников. Т., 1988 г.
4. Лесгафт П. Ф. Об отношении анатомии к физическому воспитанию. Санкт-Петербург, 1876.



XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI TA’LIM TIZIMIGA JORIY ETISH MEXANIZMLARI

Yaqubova Husnigul Quryozovna

Bog’ot tumani 1-son kasb hunar maktabi o’qituvchisi

Telefon: +998 (99) 504 37 30

yaqubovahusnigul_3730@inbox.uz

Matkorimova Gulshad Sapayevna

Xiva shahar 10-son maktab o’qituvchisi

Telefon: +998 (90) 738 27 20

matkorimovagulshad_10@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro baholash dasturlari va ularni ta’lim tizimiga joriy etish mexanizmlari haqida.

Kalit so’zlar: Xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, milliy markaz, yo’l xarita, xalqaro aloqlar.

Dunyo ta’lim tizimida tan olingen va juda ko’plab mamlakatlarda joriy etilgan xalqaro baholash dasturlari quyidagilar:

The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) -boshlang’ich 4-sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushunish darajasini baholash;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o’quvchilarining matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan o’zlashtirish darajasini baholash;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’qitish va ta’lim olish muhitini hamda o’qituvchilarning ish sharoitlarini o’rganish uchun.

Xalqaro baholash dasturlarini mamlakat ta’lim tizimiga joriy etish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish vazifasi davlat inspeksiyasi huzurida yangi tashkil etilgan Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi zimmasiga yuklatilgan.

Quyidagilar Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo’nalishlari etib belgilangan:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O’zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

- ta’lim tizimida o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo’naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

- ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o’rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o’tkazishda ishtirok etish;

- ta’lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o’tkazish;

- ta’lim sifatini baholash bo’yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo’llab-quvvatlash;

- umumiy o’rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash;

- O’zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

- xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo’yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg’or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo’llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o’qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlar bo’yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo’yicha o’quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda O’zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko’rish bo’yicha “yo’l xaritasi” tasdiqlangan. Xalq ta’limi vazirligi 2019 yil 1 fevralga qadar Milliy markaz bilan birgalikda o’quvchilarining qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o’rta ta’lim



muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlardan ishtirok etishni ta'minlash dasturini ishlab chiqadi. Bundan tashqari, xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish, o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish va 2019-2021 yillarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollarni o'zida mujassam etgan o'quv dasturlari asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlar yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahar hamda har bir tuman (shahar)da xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tayanch maktablarni belgilash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash

dasturlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganlik va Internet jahon axborot tarmog'iga ulanganlik holatini inventarizatsiya qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish choralarini ko'rish vazifalarini ham amalga oshiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati

1. Abdullayeva Sh. Ta'limda o'qituvchi shaxsi va o'quvchi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari. // Molodoy uchyonyu, 2016 yil. 9-son.
2. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
3. Azizzo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. T.: TDPU, 2000.



BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSALARIDA SO'Z MA'NOLARI USTIDA ISHLASH USULLARI

Yunusova Enaxon Muqumovna
Farg'on'a viloyati Dang'ara tumani
5-umumiy o'rta ta'lif maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: maqlada boshlang'ich ta'linda ona tili darslari va ularda so'z ma'nolari ustida ishlash usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: so'z, ona tili, tushuncha, lug'at, nutq o'stirish.

Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmosg'i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo'lmoqning bosh sharti esa uning tiganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakkantirmoqdir. Zotan, nutq madaniyati tildan bermalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Boshlang'ich ta'linda so'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosinn tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosini tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosini qisqacha tushuntiriladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq oborotlari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosini matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydiganso'zularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarini izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish.

Masalan, sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor - vatan, inshoot - bino, samo - osmon kabi. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.

4. Tanish bo'lmanan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo'y so'zini yolg'onchi so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushuncha bilan, ya'ni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi kerak. Masalan, o'zboshimchalik – o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis – biror hunar egasi; shunqor



– uzoq uchadigan ko’zi o’tkir qush; mesh – mol terisidan tikilgan idish; gul solib qo’yiladigan idish va boshq.

Ba’zi so’zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn – bir vaqtning o’zida donni o’radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo’jalik mashinasi; ekskavator - bir vaqtning o’zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo’nadigan joy va hok.

6. So’zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq – suvsiz joyda o’sadigan ninasimon tikanli o’simlik; akula – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so’zlarning ma’nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o’quvchilar o’rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo’lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich ta’limda boshlang’ich sinf o’quvchilari nutqini o’stirish, ularning lug’atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikr ifodalash ko’nikmalarini rivojlantirish zarurdir. Shunday ekan, so’z ma’nosini tushuntirish ustida ishslash o’quvchilar lug’atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – 476 b.
2. Tolipov Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
3. Xodiev B., Golish L. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. –T.: TDIU, 2010. – 87 s.
4. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili. O‘zMU, T.: 2002.



МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ СИНОНИМОВ В УЧЕБНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Абдурахмонов Ислом
Андижанский Государственный
Университет Студент

Аннотация: в статье анализируются синонимичные слова на русском языке и их типы, а также приводится информация об их использовании в речи.

Ключевые слова: язык, синоним, синонимия, литература, задача.

Русский язык - один из самых распространенных языков в мире. Именно поэтому его изучение расширяет лингвистический кругозор школьников, приобщает их к одному из мировых языков, его богатой культуре.

Для того, чтобы реализовать эту цель, необходимо решать следующие задачи: - развивать у студентов умение слушать, понимать устную русскую речь, говорить, читать и писать по-русски;

- обогащать запас языковых средств школьников новыми словами, грамматическими формами, синтаксическими конструкциями;

- развивать умение употреблять усвоенные языковые средства в соответствии с нормами русского литературного языка – лексическими, орфоэпическими, грамматическими, стилистическими;

- формировать элементарные навыки правописания. Программа каждого класса состоит из следующих разделов:

- Развитие навыков речевой деятельности.
- Развитие навыков употребления языковых средств.
- Требования к результатам обучения.

Для эффективного развития навыка радиорадиования используют задания, не предполагающие составления учащимися развернутых высказываний:

- выполнение действий по инструкции, содержащейся в прослушанном тексте;
- рисование (обычное, не словесное) по прослушанному произведению;
- краткие (одним – двумя словами) ответы на вопросы по тексту;
- выбор из нескольких, данных учителем, вариантов ответа на вопрос по тексту и т.п.

Слушанию может предшествовать подготовительная работа, заключающаяся в толковании отдельных слов, ситуаций; постановке вопросов и заданий, направляющих внимание при слушании и др. Необходимость такой работы т т ее объем определяются сложностью текста, степенью подготовленности студентов, характером задания на проверку понимания прослушанного.

Другой вид речевой деятельности – говорение (составление диалогических и монологических высказываний) является не менее важным аспектом в обучении. Для этого необходимо создавать в классе обстановку, которая способствует общению, поощряет школьников высказывать свои мысли, поддерживает диалог на темы, представляющие реальный интерес для детей. Нужно формировать коммуникативные умения: ориентировать содержание и формы высказывания на конкретного слушателя, внимательно, заинтересованно слушать других, строить ответную реплику точно в соответствии со сказанным собеседником.

В ходе этой работы у школьников формируется представление о требованиях к речевому высказыванию, отрабатывать умения, необходимые для составления текста, учят критически оценивать речевое произведение. При этом используют сведения о тексте, которые учащиеся получили на уроках родного языка: о теме и основной мысли, структуре текста, его стилистической окраске, функциональных, ситуативных особенностей и др.

Список используемой литературы:

1. Антонова Л.Г. Ведение дневниковых записей как элемент профессиональной подготовки будущих учителей // Русский язык в школе. – 1988. – №6.



ЎРТА МАХСУС КАСБ-ХУНАР ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Кадам Бабаджанов,

Урганч давлат университети Ахборот
технологиялари кафедраси катта ўқитувчи

Дилмурод Худайберганов,

ТТА Урганч филиали Академик лицейи ўқитувчи

Аннотация: Ушбу мақолада ўрта махсус касб-хунар таълими тизимида ўқувчи-ёшларга осон усулда етказиш юзасидан педагогик технологияларни қўллаш бўйича маълумотлар ёритилган.

Калит сўзлар: Педагогик технология, креативлик, усул, техника, сифатли таълим, мустақил таълим.

Ҳар бир фанда педагогик технологияларни қўллаш асосида дарс машғулотларини олиб бориши самарали йўллардан бири бўлиб ҳисобланади. Чунки, ҳар бир таълим муассасаларида ўқувчи-ёшларни ҳар томонлама баркамол инсонни тарбиялаш ва кележакда уларни етук мутахассис қилиб тарбиялаш белгиланган. Шу боис, ёш ўсиб келаётган авлод ва бўлгуси мутахассисларни ақлан, маънан ва жисмонан қилиб шакллантириш бирга замонавий билимларни ўзлаштириш, илмий-мантикий фикрлаши ва унинг натижаларини амалда қўллай олишлари ҳамда кейинчалик мутахассислар улушкини кучайтиришни йўлга қўйиш учун адабиётлар сифатини яхшилаш ва уларга эътиборни кучайтириш, фан ва технологияларнинг янги ютуқларини ўқув жараёнига жорий этиш лозим.

Мазкур чора-тадбирларни изчил амалга ошириш борасида ўрта махсус касб-хунар таълими тизимида педагогик технологияларни қўллашга қаратилган ҳамда таълим босқичларининг узлуксизлиги ва изчиллигини таъминлайдиган бир қатор меъёрий-хуқуқий хужжатлар ишлаб чиқилган. Натижада, ўқувчи-ёшларнинг қизиқишиларини ошириш ва уларнинг фаолиятини қўллаб-кувватлаш учун ўқув жараёнида таълим сифати ва самарадорлигини оширишга қаратилган замонавий педагогик технологиялар усул ва воситалари тадбик қилинмоқда.

Таълим муассасаларида фанлар бўйича ўқувчи-ёшларга таълим берилиб, булар у ўз ичига ўз ихтисослиги бўйича бериладиган таълим фанлари ҳамда шуларни самарали ва сифатли ўқитиши бўйича усуллар ва услублар мажмуасини қамраб олади. Бу борада фанларни ўқитишининг илғор усуллари асосида билим берилмоқда. Ушбу жараёндаги мухим вазифалар ўқитувчиларга юкланди ва улар креативлик қобилиятига ҳам эга бўлишлари лозим. Чунки, креативлик - турли вазиятларда таълим ва тарбияга оид масалалар юзасидан қарорларни қабул қилиш бўлиб, у педагогнинг аниқ ижодий фаоллигини тавсифлайди.

Ўрта махсус касб-хунар таълими тизимида фанларни ўқитишининг усуллари ва техникаси бўлиб, масалан маъруза, муаммовий усул, кейс-стади, пинборд, парадокслар ва лойихалар усуллари, амалий ишлаш усули ҳисобланади. Бунда ўқитиши ташкил этиш шаклларига алоҳида эътибор қаратилади.

Мазкур технологияларни қўллаш асосида бошқариш усуллари ва воситалари ўқув машғулоти босқичларини белгилаб берувчи технологик харита кўринишидаги ўқув машғулотларини режалаштириш, қўйилган мақсадга эришишда ўқитувчи ва тингловчининг биргалиқдаги ҳаракати, аудитория машғулотлари ва аудиториядан ташқари мустақил ишларнинг назорати каби жараёнлар бажарилади.

Педагогик технология усуллари орқали фанларни ўқитишида илғор таълим методлардан кенг фойдаланилиб, улар маълумотларни кўргазмали органайзер ҳолатида тақдим этиш усул ва воситалари сифатида қўйидагича таснифланади:

1-жадвал. Педагогик технологиялардаги усул ва воситалар таснифи

№	Усул ва воситалар таснифи	Моҳияти ва мазмуни
	Инсерт жадвали	Мустақил ўқиши вақтида олган маълумотлар ва эшитган маърузаларни тизимлаштиришни таъминлаша ҳамда унда олинган маълумотни тасдиқлаш, аниқлаш, четга чиқиш ва кузатишдир



	Кластер	Талабаларни мавзуга тааллукли тушунча ёки аниқ фикрни эркин кетма-кетлик бўйича тармоқларга ажратишга ўргатиш ҳамда уларнинг фикрлаш фаолиятини жадаллаштириш ҳамда кенгайтиришдир
	Тоифалаш жадвали	Олинган маълумотларни бирлаштириш, тизимли фикрлаш, маълумотларни тузилмага келтириш ва тизимлаштириш кўникмаларини ривожлантириш ҳамда тоифали шарҳлаш қоидаси билан таништиришдир
	БББ (билиман, билишни ҳоҳлайман, билиб олдим) жадвали	Мавзу, матн ва бўлим бўйича изланиш, тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш ва таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантириш ҳамда ўкувчи-ёшларни жадвал тузиш қоидаси билан таништириб, кичик гурухларда жадвални расмийлаштиришдир
	Концептуал жадвал	Ўрганилаётган ҳодиса, тушунча ва фикрларни таққослаш, тизимли фикрлаш, маълумотларни тузилмага келтириш ва тизимлаштириш кўникмаларини ривожлантириш ҳамда таққосланадиган жиҳатларни аниқлашдир
	Венн диаграммаси	Ўкувчи-ёшларда мавзуга таҳлилий ёндашиш ва айрим қисмлар негизида мавзуу моҳиятини ўзлаштириш кўникмаларини ҳосил қилиш ҳамда кичик гурухларни шакллантириш орқали схема бўйича амалга оширишдир
	Т-жадвал	Ўзаро солишириш сифатида танқидий мушоҳадани ривожлантириш, ўкувчи-ёшларни қоидалар билан таништириб, якка тартибда расмийлаштириш ҳамда ажратилган вакт оралиғида тартибда тўлдириш ва жадвалларн жуфтлик асосида таққослаб тўлдиришдир
	“Нима учун?” схемаси	Муаммонинг дастлабки сабабларини аниқлаш, ўкувчи-ёшларнинг тизимли, ижодий, таҳлилий фикрлашни ривожлантириш, алоҳида ёки кичик гурухларда муаммони ифодалаш, уларни кичик гурухларга бирлаштиришдир
	Балиқ скелети чизмаси	Юқори ва пастки қисмлар учун муаммоларнинг тури ва уни тасдиқловчи далилларни ёзиш асосида йирик муаммоларнинг ечимини топишдир ҳамда уни тасдиқловчи далилларни излашдир
	“Кандай?” диаграммаси	Муаммо тўғрисида умумий тасаввурларни йиғиш орқали ўкувчи-ёшларнинг тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш ва таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантириш ҳамда уларни кичик гурухларга бирлаштириш асосида диаграммани тузишни амалга оширишдир
	Ақлий ҳужум	Қўйилган савол, муаммо ва масала бутун гурух билан биргаликда муҳокама қилиш, ўкувчи-ёшларнинг ўкув жараённада машғулотларга фаол қатнашишларини таъминлаш ҳамда кенг фикрларни жалб қилишдир
	Лойиҳалаш методи	Келажакда амалга ошириладиган ишларни самарали режалаштириш орқали лойиҳа, маълум ҳисоб-китоб, чизма ва бошқаларга асосланган ҳолда аниқ тавсифлаш ва баён қилиш шаклида ғоя ва фикрни мужассамлаштиришдир
	Бахс-мунозара	Фикрни ифода этишни ҳоҳловчилар орасида бирор-бир мунозарали масалани муҳокама қилиш, ҳакиқатни аниқлаш ва шу орқали тўғри қарорни қабул қилишдир
	ФСМУ технологияси	Мунозарали масалаларни ҳал этиш орқали ўкувчи-ёшларнинг ўз фикрини ҳимоя қилишга, эркин фикрлаш ва фикрларини ўтказиш, очик ҳолда баҳсласишиш ҳамда баҳсласишиш маданиятини ўргатишдир
	“Нилуфар гули” чизмаси	Амалий жиҳатдан гояларни ихчам деб тасаввур қилиш орқали фойдали машқни бажариш ҳамда доимо мушоҳадалар натижасини қофоз шаклида ёритишдир
	“Блиц-сўров” усули	Тарқатилган қоғозлардаги ҳаракатлар кетма-кетлигини мустақил белгилаш, кичик гурухларда фикрни ўтказиш ҳамда баъзан бир фикрда бўлиш ҳамда ҳамфир бўлиш каби кўникмаларни шакллантиришдир
	Кўргазмали слайдлар усули	Тингловчиларга тақдимот обьекти ҳакида тўлиқ маълумотларни қулай шаклда етказиш ҳамда интерактивлигини хисобга олиб, унсурлар ёрдамида фойдаланувчи учун таъсир шароитини яратишдир

Жадвалга асосан ўрта маҳсус қасб-ҳунар таълими тизимида ушбу педагогик технология усул ва воситаларини қўллаш учун фан дастурининг мавжудлиги ва унинг қисқача тавсифи, барча таълим йўналишлари учун ўқитиладиган фаннинг аниқлиги, фаннинг бошқа фанлар билан боғлиқлиги, фаннинг мазмуни ҳамда фаннинг долзарблиги муҳим ресурс бўлиб хизмат қиласи. Ҳамда фанни ўқитишдан мақсад ва унинг вазифаларига ҳам алоҳида эътибор қаратилиб, ўкувчи-ёшларнинг билимини экспресс тестлар, ёзма ишлар, оғзаки сўров ва презентациялар орқали баҳолаш тизими ҳам муҳим бўлиб ҳисобланади.



Умуман олганда, ўрта махсус касб-ҳунар таълими тизимида педагогик технологияларни кўллаш ўқувчи-ёшларни сифатли таълим ва дарс бериш, уларни адабиётлар, ишланма ва матнлар, интернет маълумотлари, тақдимотлар билан кенг танишириш ва мавзунинг мазмунини чукур билишга катта эътибор қаратиш, уларнинг фанлардан мустақил таълим мини самарали ташкил этиш, амалиётдаги мавжуд муаммонинг ечимини топишда уларнинг ижодий тафаккурини ривожлантириш кабилар учун зарур манба бўлиб хизмат қиласди.

Фойдаланилган адабийотлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: Faafur Fulomномидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.
2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: Moliya, 2003.
3. Yo’ldoshev J.G., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. - T.: 2004. - 4 b.
4. www.ziyonet.uz – Таълим портали



ТАЛАБАЛАРНИНГ САМАРАЛИ ФАОЛИЯТИ АМАЛИЁТИ ДОИРАСИДА WEB-ПОРТФОЛИО ТУРЛАРИ

Якубжонова Мафтунахон Исломжон қизи

Қўқон давлат педагогика институти, ўқитувчи

Тел: +99897-335-21-03

E-mail: yakubjonova91@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада олий ўқув юртларида талабаларнинг самарали фаолияти амалиёти доирасида web-портфолиоларнинг ҳар хил турлари ва уларнинг мазмкни ёритилган

Таянч сўзлар: web-портфолио, e-portfolio, ривожлантирувчи, идрок этувчи, тақдим этувчи

Медиа таълимнинг асосий мақсади талабалар онгига замонавий мултимедиа маконида воқеликнинг адекват тасвирини шакллантиришdir, деган таклифга таянган ҳолда, олий ўқув юртларида талабаларнинг медиамаданиятини ривожлантириш мазмунини кўриб чиқиш керак.

Замонавий олий мактабнинг техник жиҳозланиши албатта компьютер синфини (компьютер марказини) ўз ичига олади, лекин шу билан бирга дастурӣ таъминот ва мултимедиа дастурлари ва бошқа кўргазмали ўқув қуролларининг етишмаслиги муаммоси мавжуд бўлиб, бу ўқув жараёнининг сифатига ва талабаларнинг когнитив фаолияти хусусиятига сезиларли даражада таъсир қиласди.

Web-портфолио, e-portfolio ёки ёки бир нечта муаллифларнинг on-line асарлари тўпламлари – бу медиа-маданий технологиялар бўлиб, улар орқали олий таълимда медиа-таълим доирасида талабанинг (талабаларнинг) таълим натижаларини акс эттирувчи бўлажак мутахассисларда медиа компетентликни ривожлантириш воситаси сифатида фойдаланиладиган web-асосланган ресурсни тушунилади. Муаллиф асарларининг web-портфолио, e-portfolio ёки on-line тўпламининг асосий афзаллиги - талабаларга ўқув жараёни хақида мустақил фикр юритиш, ўз медиа-маҳсулотларини, ўқув-касбий билим ва компетенцияларини тақдим этиш имкониятини беришдир.

Талабаларнинг самарали фаолияти амалиёти доирасида web-портфолиоларнинг ҳар хил турларини: амалиётга йўналтирилган, муаммога йўналтирилган, муаммоли-тадқиқотли, тематик (1-жадвал) ажратиб кўрсатиб, И.В. Григорьева уларни лойиҳалаштириш контекстида кўриб чиқади, мақсаднинг ўзига хос хусусиятидан келиб чиқиб эса, “ютуқлар web-портфолиоси”, “шахсий ўсиш web-портфолиоси”, “коллектор web- портфолиоси”, “лойиҳа web-портфолиоси” ни ажратади .

1-жадвал

Талабаларнинг амалий-самарали фаолияти доирасидаги web-портфолио турлари

web-портфолио тури	web-портфолионинг мақсади
Амалиётга йўналтирилган	Мақсад-амалий фаолиятни таҳлил қилиш
Муаммога йўналтирилган	Муаммони ҳал қилиши сифатини оширувчи восита
Муаммоли-тадқиқотли	Реферат ёзиш, илмий иш, конференсияга тайёргарлик билан боғлик ҳолда материя тўплаш ва тизимлаштириш учун фойдаланиладидаланилади
Мавзули	Мавзуни таҳлил қилиш, турли жиҳатларини ишлаб чиқишига бағишиланган

Ғарб медиа педагогикасида «web-портфолио» нинг учта асосий турини ажратиш одатий ҳолдир:

- ривожлантирувчи web-портфолио (developmental web-portfolio) - талабанинг маълум вақт давомида ўқув жараёнида амалга ошираётган фаолияти тўғрисидаги ҳисоботнинг бир туридан иборат;

- идрок этувчи web-портфолио (reflective web-portfolio) портфолионинг мазмуни ва портфолионинг ишлаб чиқилиш унинг эгасининг ривожланишига қандай таъсир қилиши ҳақидаги шахсий фикрларни ўз ичига олади;

- тақдим этувчи web-портфолио (reflective web-portfolio) талабанинг таълим-касбий



ютуқларини намойиш этади. Резюме сифатида фойдаланилганда, бундай портфолио баъзан мартаба ўсиши web-портфолиоси деб аталади (career web-portfolio).

Аксарият Ғарб медиа педагогларининг фикрига кўра, ушбу уч турдаги “web-портфолио” эгасининг шахсий, таълим ва касбий манфаатларини қондириш учун бирлаштирилиши мумкин.

Албатта, “web-портфолио” ахборотни йиғиши ва ташкил этишнинг ўзига хос тузилиши ва механизмларига эга. Web-портфолионинг тузилиши ундан фойдаланиш мақсади билан белгиланганлиги сабабли, турли хил портфолио тузилмалари мавжуд. Масалан, И.Л. Васюков ва А.Н. Волков портфолионинг асосий қисмлари сифатида унинг тузилишини бешта компонентга ажратишини таклиф қиласиди [2]. Муаллифлар портфолионинг биринчи қисмини “Кириш” деб номлашни таклиф қиласидар, унда эгаси ҳақида қисқача биографик маълумотлар, портфолионинг мақсадлари, унинг тузилиши ва хусусиятлари ҳақидаги маълумотлар бўлиши мумкин. Иккинчи қисмда бошқалар томонидан эътироф этилган ва эгаси томонидан идрок этилган ўзининг, ҳаёт, таълим, касбийдан олдинги, касбий ва илмий тажрибалари ютуқларидан далолат берувчи имконийатлар – “Менинг ютуқларим”га эга. Учинчи қисм ижтимоий ҳаётнинг тўплланган тажрибаси, шахслараро боғланишлар, алоқалар, севимли машғулотлари, қизиқишлари ва бошқаларни тасдиқловчи материалларни жойлаштиришни ўз ичига олади – “Мен одамлар дунёсидаман”. Портфолионинг тўртинчи қисми, муаллифларнинг фикрича, эгасининг ўз қадриятлари ва идеалларини, ўзи ҳақидаги тасаввурларини, кучли ва заиф томонларини, индивидуал миссиясини, дунёнинг ривожланиш тенденцияларини, очилаётган имкониятларни, юзага келадиган хавф-хатарлар, шахсий ва профессионал режалар, шунингдек уларни амалга ошириш усуллари, воситалари ва вақти ҳақида мустакил баҳолашни ўз ичига олган материаллардан иборат – “Ҳаёт ҳақидаги ғояларим”. Бешинчи қисм юқорида айтилган ва кўрсатилган барча нарсаларни умумлаштиришни, шунингдек, портфолионинг кимга тақдим этилганлигига эътиборни қаратишни кўзда тутади – “Хуроса”.

Замонавий on-line нашрларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, web-портфолионинг ўзига хос афзалликларидан бири талабаларнинг ўқув ва касбий ютуқлари натижаларини виртуал маконда намойиш этиш қобилиятидир, бу шубҳасиз, бир томондан, талаба шахсининг медиа компетентлигини шакллантирса этса бошқа томондан эса уни намойиш этади. Бундан ташқари, “web-портфолио”нинг мавжудлиги бўлажак битирувчига ўзини замонавий ахборот жамияти шароитида яшаш ва ишлашга тайёр, компетентли мутахассис сифатида кўрсатишга имкон беради.

Шундай қилиб, олий ўқув юртларининг ўқув жараёнига профессионал кадрлар тайёрлашда web-портфолиони жорий этиш орқали олий касбий мактаб жамиятнинг медиакомпетентли мутахассисга бўлган ижтимоий буюртмасини қондириш имконияти пайдо бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Вебер В. Портфолио медиаграмотности // Информатика и образование. 2002. – № 1/
http://www.infojournal.ru/journal_arxiv/2002/
2. Гордеева И.В., Мультимедиа технология. – Новосибирск: СГГА, 2010. – С. 158.



IRRATIONAL SON TUSHUNCHASI

Xasanova Nafisa Nozimjonovna


Farg’ona viloyati Oltiariq tumani 1-umumta’lim
maktabi matematika fani o’qituvchisi
tel: +99890 4090662

Annotatsiya: maqolada ratsional va irratsional sonlar haqiqiy sonlar to’plamini tashkil qilishi va irratsional son tushunchasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: chekli o’nli davriy kasr, irratsional sonlar, ratsional sonlar, haqiqiy sonlar to’plami.

Matematikada chekli o’nli davriy kasrlar bilan bir qatorda **cheksiz o’nli nodavriy kasrlar** ham mavjud. Masalan, $0,1010010001\dots$ kasrda birinchi 1 raqamidan keyin bitta nol, ikkinchi 1 raqamidan keyin ikkita nol, uchinchi 1 raqamidan keyin uchta nol turibdi va hokazo, bu kasr nodavriy kasrdir. Shuningdek, verguldan keyin ketma-ket barcha natural sonlar yozilgan $0,123456789\dots$ kasr ham nodavriy kasrdir.


Cheksiz o’nli nodavriy kasrlar **irrational sonlar** deyiladi. Ratsional va irratsional sonlar **haqiqiy sonlar to’plamini** tashkil qiladi.



Haqiqiy sonlar ustida **arifmetik amallar va taqqoslash qoidalari** shunday kiritiladiki, natijada bu amallarning, tenglik va tengsizliklarning ratsional sonlar uchun xossalari butunlay saqlanadi. Kvadrat ildiz chiqarish amaliga murojaat qilamiz. Oliy matematika kursida istalgan haqiqiy nomanfiy sondan kvadrat ildiz chiqarish mumkinligi isbot qilinadi. Ildiz chiqarish natijasida ratsional son ham, irratsional son ham hosil bo’lishi mumkin.

O’quvchilar VII sinfda birinchi marta irratsional son tushunchasi bilan tanishadilar. O’qituvchi bu mavzuni tushuntirishdan oldin o’quvchilarga kvadrat ildiz va arifmetik ildiz tushunchalarini tushuntirishi, so’ngra irratsional son tushunchasini quyidagi masalani yechish orqali kiritishi lozim.

Masala: Katetlari bir birlikka teng bo’lgan to’g’ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi topilsin.



Berilgan: $\triangle ABC$, $\angle C = 90^\circ$, $CB = AC = 1$

Topish kerak: $AB = ?$

Yechish. Pifagor teoremasiga ko'ra: $AB^2 = AC^2 + CB^2$, $AB^2 = 1^2 + 1^2 = 2$

Masalaning yechimini quyidagicha o'qish mumkin. Shunday AB soni topilsinki, uni kvadratga ko'tarilganda 2 soni hosil bo'lsin. Bunday AB son ratsional sonlar to'plamida mavjud emas. A nuqtadan AB ga perpendikulyar $AA_1 = 1$ katetni o'tkazib, uning A_1 nuqtasini B nuqta bilan birlashtirib, A_1B ning qiymatini hisoblaymiz: $A_1B^2 = AB^2 + 1^2$; $A_1B^2 = 2 + 1 = 3$; $A_1B^2 = 3$ soni ham ratsional sonlar maydonida mavjud emas. Yuqoridagilardan ko'rindaniki, ratsional sonlar to'plamida mavjud bo'limgan yana qandaydir sonlar to'plami ham mavjud ekan, ya'ni: $AB^2 = 2$; $A_1B^2 = 3$, ...

Yuqoridagi mulohazalarga ko'ra $AB^2 = 2$, $A_1B^2 = 3$, ... ko'rinishdagi sonlarni ratsional bo'limgan yoki irratsional sonlar deb ataldi va ularni $AB = \sqrt{2}$, $A_1B = \sqrt{3}$, ... kabi belgilash qabul qilingan.

Ta'rif: $\frac{p}{q}$ kasr ko'rinishida tasvirlab bo'lmaydigan sonlar irratsional sonlar deyiladi. $(p, q) \in N$

Bu yerda o'quvchilarga yana shu narsani tushuntirish kerakki, har qanday ratsional sonni cheksiz davriy o'nli kasr ko'rinishda ifodalash mumkin, irratsional sonni cheksiz davriy o'nli kasr ko'rinishda ifodalab bo'lmaydi, bunga quyidagi misollarni ko'rsatish mumkin.

1. $\sqrt{5} = 2,360679\dots$ bu erdag'i $\sqrt{5}$ irratsional son cheksiz davriy bo'limgan o'nli kasr ko'rinishida ifodalanayapti.

2. $\sqrt{2} = 1,41$ - bu erdag'i $\sqrt{2}$ irratsional son ta'rifini yana quyidagicha berish mumkin.

Ta'rif. Cheksiz davriy o'nli kasr ko'rinishida ifodalab bo'lmaydigan sonlarni irratsional sonlar deb ataladi.

Teorema: kvadrati 2 ga teng bo'lgan ratsional son mavjud emas.

Bu teoremaning isbotini teskarisidan faraz qilish yo'li bilan isbotlaymiz, chunki $1^2 < 2 < 2^2$ butun sonlar to'plamida u kvadrati 2 ga teng bo'lgan son mavjud emas.



Isboti. Faraz qilaylik, $\frac{p}{q}$ ko'rinishidagi qisqarmas kasr mavjud bo'lsin, r va q – natural sonlar. Faraz qilaylik, kvadrati 2 ga teng bo'lgan ratsional son mavjud bo'lsin, ya'ni: $\left(\frac{p}{q}\right)^2 = 2$, bu erda $p^2=2q^2$, bu erda r ning ham ikkiga bo'linishi kelib chiqadi. Agar $r=2n$ bo'lsa, $4n=2q^2$ $2n=q^2$ bo'ladi, bundan q ning ham juft son ekanligi kelib chiqadi. Farazimizga ko'ra $\frac{p}{q}$ kasrni qisqarmas kasr degan edik, isbotning natijasida esa $\frac{p}{q}$ kasr qisqaruvchi kasr bo'lib chiqyapti, bunday qarama - qarshilik farazimizning noto'g'ri ekanligini tasdiqlab, teorema to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ta'rif va isbot qilingan teoremalardan ko'rinaradiki kvadrati 2, 3, 5, 7, 10, 11 larga teng bo'ladigan ratsional son mavjud emas ekan, biz ta'rifga ko'ra bularni irratsional sonlar deb atadik. Bunday irratsional sonlarni $\sqrt{2}, \sqrt{3}, \sqrt{5},$ - kabi belgilash qabul qilingan. Ularga qarama - qarshi bo'lgan sonlar ham irratsional sonlar bo'lib, ular $-\sqrt{2}, -\sqrt{3}, -\sqrt{5},$ - kabi belgilanadi. O'qituvchi bu erda o'quvchilarga shuni eslatishi kerakki, irratsional sonlarga kvadrati berilgan musbat songa teng bo'lgan sonni topish masalasigina olib kelmaydi. Masalan, aylana uzunligining diametriga nisbatini ifodalovchi π sonini oddiy kasr ko'rinishida tasvirlash mumkin emas, u ham irratsional sondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Algebra. Uchebnoeposobiedlya 9–10 klassov. Podred. N.Ya. Vilenkina. Moskva, “Prosvetlenie”, 2004.
2. <http://www.ams.org/mathweb/> – Internetda matematika (ingliz tilida).
3. “Matematikavshkole” jurnali.
4. Fizika, matematika va informatika. Ilmiy-uslubiy jurnal (2001- yildan boshlab chiqa boshlagan).



INNOVATSION TEXNOLOGIYA: TANQIDIY FIKRLASHNING BOSQICHLARI

Rakhimova Dunyozod Sherzodbek qizi

Andijon davlat universiteti

Chet tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

Телефон: +998914788372

sanam_2004@mail.ru

ANNOTATSIYA: Maqola innovatsion texnologiyalar orqali kommunikativ savodxonlikni oshirish usullariga bag'ishlangan. Shuningdek, unda tanqidiy fikrlashni dars jarayonida qo'llashda amal qilinishi kerak bo'lgan bosqichlarga izoh berilgan.

KALIT SO'ZLAR: og'zaki va yozma nutq, hozijavoblik, tanqidiy fikrlash, eslab qolish, izlanish, imkoniyat, faoliyat.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotida yangicha qarashlar qaror topayotgan bir sharoitda yosh avlod ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, boshqarish, barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda keskin raqobatga bardosh bera oladigan mutaxassislargina faoliyat yurita oladilar.

Insoniyat sivilizasiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini o'ta qat'iy hamda murakkab talablar asosida yo'lga qo'yish zarurati kun tartibiga qo'yilmoqda. Hozirgi kunda uzlusiz ta'lim tizimida kommunikativ savodxonlikni oshirishda turli xil innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'zlangan maqsadga qisqa yo'l bilan erishishda muhim vosita bo'lib hizmat qilmoqda. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining yangilab borishi o'qituvchilar oldiga yangi texnologiyalardan unumli foydalanish vazifasini yuklaydi. O'quvchilar o'zaro hamkorligi ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mustaqil mulohaza yuritish, u yoki bu masala bo'yicha o'z fikrini bildirish, munosabatini bayon etish hamda zarur ko'nikmalarni shakllantiradi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'qitish jarayonida qo'llash o'quvchilarni faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiya ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan o'zaro bog'liq ravishda shakllanib va rivojlanib borishi natijasida turlicha ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Hozirda ko'zda tutilgan maqsad ta'limda sifat va samaradorlikni oshirishdir. Ta'lim jarayonida «Taqidiy fikrlash», «Bahslarning o'tkazish usuli» kabi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

“Taqidiy fikrlash” texnologiyasi talabalarda kommunikativ savodxonlikni oshirishda, tinglash, muloqot olib borish, turli fikrlarni taqqoslash, o'zgalar fikriga befarq qaramaslik kabi malakalarini o'zlashtiriladi. Ushbu texnologiyada mavjud voqelikni tanqidiy fikrlash asosida baholash quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Talabaning o'z fikrini erkin ifodalashi. Talabaga aytilgan muammo bo'yicha o'z o'rnini aniqlab olishi uchun imkon beriladi. Masalan, O'.Hoshimovning “Urushning so'nggi qurban” asarida onaning o'limiga kim aybdor? Talabandan javob olish uchun qator savollar bilan murojaat qilish mumkin: Sening fikring qanday? Bu haqda sen qanday fikr dasan? kabi savollar.

2. O'z fikrini oydinlashtirish. Talabaning fikrini yanada aniqlashtirish maqsadida unga qo'shimcha tarzda quyidagi savollar beriladi: Bu bilan nima demoqchisan? O'z fikringni tushuntira olasanmi? Bu nima degani va hokazo.

3. Talabalar fikrlarini asoslanganligini tekshirish. Bunda quyidagi savollar berilishi mumkin: Nima uchun sen aynan shunday deb o'ylaysan? Sening mavqeiningi tasdiqlovchi qanday asoslar bor? Nima uchun senda shunday fikr tug'ildi? O'z fikringni qanday isbotlaysan?

4. O'zgalar fikrini o'rganish. Inson o'z fikrining ojizligini har doim ham tan olavermaydi. Shuningdek, suhbatdoshining fikriga hurmat- ehtirom bilan ham qarayvermaydi. Bu holatni ko'proq o'smirlarda kuzatish mumkin. Ba'zan muammolar yechimini topishda o'zgalar fikrini tinglash ko'nikmasi juda asqotadi. Bu ko'nikmani talabalarda shakllantirish uchun quyidagi savollar bilan murojat qilinadi: O'z fikringizga muqobil bo'lган holatni ayta olasizmi? Bu haqda boshqalar nima deydi? Tanqidga uchrashingiz mumkinmi?

5. O'z va o'zgalar fikrini tahlil etish. Talaba o'z fikri bilan o'zgalar fikrini o'zaro taqqoslash, ilmiy asoslangan holatni aniqlash uchun fikrlar qarama-qarshiligini tahlil etishi kerak. Shunda



quyidagi savollar asqotishi mumkin: o‘z fikring qanday? Qarshi tomonning dalil-isboti nima uchun to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri? Qanday fikrlar seni qanoatlantiradi?

Tahlil qilinayotgan muammo bo‘yicha turli fikrlarning mantiqiy natijalarini o‘rganish uchun savollar: Agar sizning g‘oyangiz qabul qilinsa, nima ro‘y berishi mumkin? U jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Foyda beradimi?

6. Muammo natijasini qabul qilish. Bu «tanqidiy fikrlash» usulining so’nggi bosqichi hisoblanib, talabalar fikrlari qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi. Buning uchun: Qaysi natija eng qulay va ishonchli? Kimning chiqishi maqsadga muvofiq bo‘ldi? Siz bahsga qanday nuqta qo‘ygan bo‘lardingiz? kabi savollar asqotishi mumkin. Ushbu texnologiya kommunikativ savodxonlikni oshirishda, bilimlarni o‘zlashtirishda, yoshlarni jamiyatda, jamoa hamda oilada o‘z o‘rnini topishi uchun ko‘maklashadi, voqealarga tanqidiy ko‘z bilan qarash va uni obyektiv baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu texnologiyaning afzalliklari: bilimlarni eslashga undaydi; fikrlarni bayon qilishga imkon beradi; og‘zaki va yozma nutqni o‘siradi; hozijavoblikka o‘rgatadi; tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi; hamma o‘quvchi baholanadi; o‘quvchilarning mavzuni tushunishiga va eslab qolishiga yordam beradi; o‘z ustida izlanishlari imkoniyatini kengaytiradi; faolliklarini taminlaydi.

Adabiyotlar

1. Alimov Sh.S. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan ma’ruzalar. Andijon, 2012
2. Исламгулова С. К. Технологизация процесса обучения в школе: теория и опыт. – Алматы. 2004

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000